

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН МУҲАНДИСЛИК-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ

“МУХАНДИСЛИК ТЕХНОЛОГИЯ” ФАКУЛТЕТИ

“БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТ” КАФЕДРАСИ

Ҳимояга руҳсат этилди
факултет декани:

“ ____ ” _____ 2011 йил

“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” таълим йўналиши бўйича битирувчи

Давлатов Ғайратнинг

**БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ
ИШИ**

Илимий раҳбар: _____

Наманган 2012

Mundarija

Kirish.....

I bob.Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning nazariy asoslari.

I.1. Bank tizimini islox qilishning mohiyati,axamiyati va zarurligi.....

I.2. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish yo'nalishlari.....

I.3. Bank tizimini islox qilish va rivojlantirishning bosqichlari va ularga tavsifnoma.....

II bob. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari tahlili.

II.1. Bank tizimini islox qilish tahlili.....

II.2. Bank tizimini erkinlashtirish yo'nalishlari tahlili.....

III bob. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlarini takomillashtirish yo'llari.....

III.1. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishni asosiy yo'nalishlari.....

III.2. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish yo'nalishlaridagi mavjud muammolarni va ularni bartaraf etish yo'llari.....

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilovalar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aktivlarlarini boshqarish strategiyasi oqilona olib borilishi, tijorat banklari faolligini oshirishning samarali shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xo'jalik sub'ektlarining, aholining, hukumatning joriy va investitsiya xarajatlarining aksariyat qismi bank kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Darhaqiqat, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ushbu masala xususida to'xtalib, «...bank xizmatining yangi turlarini joriy etish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni kamida 30 foizga ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo'shimcha ravishda ishlab chiqish»¹ ga e'tibor qaratdilar. Shuningdek, barcha xo'jalik sub'ektlarining milliy va xalqaro hisob kitoblari tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai-nazardan olganda, xo'jalik sub'ektlarining pul oqimlari shakllanishiga tijorat banklari faoliyati bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarining yuqorida qayd qilingan vazifalari muvaffaqiyatli hal etilishi birinchi navbatda, ular aktivlarini samarali, oqilona boshqarishga bog'liq. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Respublikamiz tijorat banklarida aktivlarini boshqarish borasida bir qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu holat banklar aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlarning yirik miqdorda to'planib qolayotganligida, banklarning depozit bazasi hajmida joriy depozitlar salmog'ining yuqori ekanligida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish borasidagi muammolar hal etilishiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi ushbu muammoning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз - ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришди/ –Тошкент: «Ўзбекистон», 2010.- 57-58б.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan – S.R.Bryu, V.V.Gerahenko, E.Dolan, V.Kolesnikov, O.I.Lavrushin, I.V.Larionova K.R.Makkonel, R.L.Miller, G.S.Panova, D.Polfreman, E.Rid, P.Rouz, Dj.Sinki, V.Usoskin ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchilardan Sh.Z.Abdullaeva, T.I.Bobakulov, A.V.Vahobov, O.K.Iminov, S.X.Norqobilov U.A.Tuxtaboev, Z.A.Xolmaxmadov, T.M.Qoralievlarni keltirish mumkin. Mustaqillik yillarida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish ayrim amaliy jihatlari tahlil qilingan. Bevosita ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan olimlardan A.A.Omonov, B.T.Berdiyarov, B.B.Babaev, U.D.Ortiqov, O.B.Sattarov tadqiqot ishlarida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishni ta'minlashni takomillashtirishga bag'ishlangan. Iqtisodiy adabiyotlarda asosiy e'tibor bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan **maqsadga** erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning nazariy** asoslarini tadqiq qilish, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash;

- bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari tahlil qilish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini baholash;

- Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlarini takomillashtirish **yo'llari** yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari bilan bog'liq operatsiyalari hisoblanadi. Bu yerda Namangan viloyati boshqarmasi OATB "Agrobank" moliviy hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tadqiqotning **predmeti** hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlarini takomillashtirish, kelajakda chuqur o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishining natijalarining amaliy ahamiyati, taklif va amaliy tavsiyalari Respublikamiz bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari, banklar strategiyasini belgilashda, bank aktivlarini takomillashtirishga oid qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishini oliy o'quv yurtlarida «Bank ishi», «Bank menejmenti va marketingi» fanlari dasturini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mavzuning tarkibi kirish,

uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mavzuning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti va amaliy ahamiyati keltirilgan.

Ishning birinchi bobi “Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning nazariy asoslari”. deb nomlanib, ushbu bobda bank tizimini islox qilishning mohiyati, ahamiyati va zarurligi va erkinlashtirish yo'nalishlari, rivojlantirishning bosqichlari va ularga tavsifnoma keltirilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari tahlili” deb nomlanib, ushbu bobda bank tizimini islox qilish va bank tizimini erkinlashtirish yo'nalishlari tahlili keltirilgan.

Ishning uchinchi bobi “Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlarini takomillashtirish yo'llari” deb nomlanib, ushbu bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishni asosiy yo'nalishlari, bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish yo'nalishlaridagi mavjud muammolarni va ularni bartaraf etish yo'llari keltirilgan.

Xulosa qismida mavzuga oid amaliy tavsiyalar berilgan.

I bob. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning nazariy asoslari.

I.1. Bank tizimini islox qilishning mohiyati, ahamiyati va zarurligi.

Prezidentimiz o'z asarlarida bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish ishlari ham 2009 yilda ustuvor vazifa bo'lib qolishini ko'rsatib o'tdilar.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan 2008 yilda ham bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda belgilangan quyidagi ustuvor vazifalarning bajarilishiga qaratildi:

- aholi va tadbirkorlik sub'ektlari hamda investorlarning mablag'larini bank aktsiyalari va depozitlarga jalb qilish orqali banklarning kapitallashuv darajasini oshirish hamda resurs bazasini kengaytirish;

- banklarning investitsiya jarayonlarida, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik qayta jihozlashdagi ishtirokini yanada kengaytirish va kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- banklarda samarali nazoratni amalga oshirish, bank infratuzilmalarini kengaytirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlarga yangi kulayliklar yaratish;

- hisob-kitoblar tizimini yanada takomillashtirish, naqd pullarning bank aylanmasiga jalb etilishini yanada kengaytirish;

- banklarni yakka tartibda baholash milliy reytingiga va xalqaro reyting kompaniyalarining reytinglariga ega bo'lishlarini ta'minlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirish.

Banklar ustav kapitaliga xususiy kapitalni jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida 17 ta tijorat banki aktsiyalari fond bozori

listingiga kiritildi va 2008 yil davomida ularning 20,6 mlrd. so'mlik aksiyalari bevosita fond birjasida nominal qiymatidan yuqori narxlarda sotildi. Natijada, o'tgan yil davomida aksiyadorlar soni 23663 taga ortdi va ularning 98 foizdan ziyodini jismoniy shaxslar tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlariga asosan strategik ahamiyatga ega bo'lgan banklarning kapitallashuv darajasini

2008 yilda respublika Markaziy banki tomonidan amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratildi. Ayni paytda iqtisodiyotda inflyatsion kutilmalarning oldini olish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgartirilmasdan yillik hisobda 14 foiz darajasida ushlab turildi. Ushbu chora-tadbirlar iste'mol mahsulotlari narxlariga monetar omillarning ta'sirini bartaraf etdi va shu yo'l bilan inflyatsiyaning belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bo'lishiga erishildi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, Uzbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

Ma'lumki, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan fuqarolarning banklar depozitlaridagi omonatlari, ularning miqdori dan qat'i nazar, davlat tomonidan to'la kafolatlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan qariyb uch barobar ko'p ekanini ta'kidlash joiz.

Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu tashqi nodavlat qarzlari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar hajmidan 10 barobar ko'pdur. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo yo'q, deb aytish uchun asos beradi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning kredit liniyalarini jalb qilish orqali banklarning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish maqsadida respublika tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting kompaniyalarining kreditga layoqatlilik reytinglarini olish bo'yicha tegishli ishlar amapga oshirildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 2008 yilning aprel oyida O'zbekiston bank tizimiga nufuzli xalqaro reyting kompaniyalaridan biri - «Mudis» reyting agentligi tomonidan xalqaro reyting bahosi berilganligi mamlakatimiz moliya tizimining barqarorligidan dalolat beradi.

Xususan, «Mudis» agentligi bir yo'la 3 ta yo'nalish bo'yicha respublika bank tizimiga «barqaror» reyting bahosini berdi. «Mudis» xalqaro reyting agentligining hisobotida ta'kidlanishicha, agentlikning ijobiy bahosi mustahkam bank nazorati tizimida, bank sektorining yuqori o'sish potentsialida, moliya tizimining tarkibiy o'zgarishi va milliy iktisodiyotning yuqori darajada o'sishida o'z ifodasini topdi.

Bundan tashqari, 2008 yilda tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting olish uchun «Mudis», «Fitch Reytings», «Standart end Purs», «Tompson Faynenshl Bank Votch», «Japan Kredit Reyting Ejensi», «Reyting Ejensi Malayziya» kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlik ishlari davom ettirildi.

2008 yilda respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining 12 tasi xalqaro «Mudis», «Fitch Reytings» va «Standart end Purs» reyting kompaniyalarining «barqaror» reyting bahosini olishga erishdilar (1.1.1-jadval).

1.1.1-jadval

Xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» reyting

bahosini olgan banklar

«Mudis»	«Fitch reyting»	«Standart end
TIF Milliy bank Ipoteka-bank G'alla-bank	Uzsanoatqurilishba Paxtabank Asakabank	TIF Milliy bank Kapitalbank

Aloqabank Turonbank Kredit standart	Hamkorbank Ipak yo'li bank	
---	-------------------------------	--

Shuningdek, xalqaro amaliyot negizida banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning milliy individual reyting tizimini joriy etish maqsadida, Uzbekiston banklari assotsiatsiyasi tomonidan Markaziy bank hamda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bilan kelishilgan holda tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zaminaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug'illi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talablariga mos keluvchi, rivojlagan milliy bank tizimiga ega bo'lish. Bu maqsadga erishish uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta'minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash, shuningdek bank nazorati tizimini kuchaytirish, banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish banqlarning depozit, kredit, investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish va banklar urtasida raqobat bo'lishini ta'minlashga asos yaratishdan iborat.

Bank tizimini qayta tashkil qilishni amalga oshirish kuyidagi tamoyillarga asoslangai holda odib borilishi mumkin:

- xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;
- bank tizimidagi islohotlar umumiy iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi bilan mos kelishi;
- bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo'li bilan jahon bank tizimiga yaqinlashtirish:
- pul-qredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyojini va uning iqtisodiyotini xususiyatlarini hisobga olish;
- banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo'yish va boshkalar.

Bizning zaminimizda manjud bo'lgan banklarning rivojlanishini ikki yirik davrga bo'lib qarash mumkin. Birinchi davr — bu O'zbekiston mustakillikka erishgungacha bo'lgan davrdagi bank tizimi va ikkinchi davr O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini uz ichiga oladi.

O'zbekiston mustaqillikka zrishgunga qadar bo'lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo'lsak uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

— **birinchi** bosqich XIX-asrning oxiridan 1930-32 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, Bu davr ichida oldingi mavjud bo'lgan banklar zahirida Sobiq Sovet ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o'lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko'rsatgan;

— ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o'zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (O'sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to'g'ridan-to'g'ri korxonalarni kredagoktsiga o'gkazilgan. Bu davrda xo'jaliklar o'rtasidaga vazifalar taqsimlangan va xalq xo'jaligi sohalari bo'yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

— uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib, mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarni olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki xo'jaligining barcha sohalariga (faqat qishloq xujaligining ba'zi ehtiyojalari uchun uzoq muddatli kreditlar bergan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullangan. Qurilish bank kapital qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog'liq operatsiyalarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo'lib,

mamlakatning eksport-import bilan boshqa faoliyatini boshqarib borgan;

— **to'rtinchi bosqich** bank Tizimini qayta tashkil qilish davri bo'lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi. davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga — sanoat-qurilish banki, agrosanoat banki, uy-joy qurilish va ijtimoiy ta'minot banki, jamg'arma bank va tashqi iqtisodiy fyaoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o'zi xizmat ko'rsatib xamma sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

Shu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funktsiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi.

90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilinishining asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash va korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlarni xo'jalik hisobiga o'gkazish, quyi bank muassasalaripish huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Sobiq SSSR bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Davlat bankining ham emissiya, ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatigan funktsiyalarini bajarishga monopollashish uni davlat boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi.

Ma'muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshkarishda format xarakgerga ega. Davlat banki kredit resurslari bo'yicha cheklanmagan monopol mavqega ega edi. Kredit resurslari harakatini ham boshqargani, ham

nazorat qilish davlat bankining monopol ta'siri ostida edi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos barcha xususiyatlarining inkor etishi, sobiq «Ittifoq» bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keldi.

Markazlashtirilgan bank tizimi boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarar, lekin resurslarni taqsimlash, emission jarayonlarni amalga oshirish ustidan nazorat qilish sobiq «Ittifoq» Davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimini qator kamchiliklari ro'ebga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba'zi bir belgilarni totalitar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy strukturasi o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimni rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakga aylantirish ko'zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanshnining ikkinchi davri asosan O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilish mumkin:

— mustaqil O'zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichi. Bu 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1992 yilga 1sentyabrgacha O'zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankinint respublika bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalari miqyosida taqsimlash, emission operatsiyalarni olib borish bi-lan shug'ullandi. Qolgan tarmoq banklar ham davlat mulkiga asoslangan edi.

O'zbekistonda ikki zvenoli bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo'lsada, bu maqsadning to'liq amalga oshirilishiga sharoit 1994 yildan boshlab yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning taxliliy tarkibiy asosi,

faoliyat olib borish uslubi o'zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajaradigan operatsiyalar salmog'i oshib bordi.

Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning roli hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga peal asos bo'lib, 1991 yil 15 fevraldagi «Banklar va bank faoliyati to'grisidagi» qonun hisoblanadi. Bu qonunga binoan :

1.Davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki va boshqa qredit muassasalarining kassa zahiralarini saqlash.

2.Rasmiy otin-valyuta zahiralarini saqlash.

3.Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalaripi bajarish.

4.Tijorat banklariga kredig berish.

5.Pul emissiyasi.

Markazny bank o'z sarf-harajatlarni daromadlari hisobidan qoplovchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklardan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

Respublika Markaziy bankining ustav kapitali 2 mlrd. so'm deb belgilantan. Shuningdek, Markaziy bank soliqlar va bojlardan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida*gi qonunning 23-moddasiga muvofiq ozoddir. Markaziy bank kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqda axborot beradi. Markaziy bank pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlarining ahvoliga asoslanib, muomaladagi pul massasining bitta yoki bir qancha ko'rsatkichlari o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljallarini belgilashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishi, pul mikdorini yillik o'stirish

sur'atlarining maqsadli ko'rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga olib muhim makroiqtisodiy jarayonlar: pulning qadrsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi hamda mehnat resurslarining bandligi, to'lov balansini barqarorlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'zaro hisob-kitoblarning O'zbekiston tijorat banki tomonidan belgilangan va bank hamda, mijozlar uchun majburiy bo'lgan qoidalar asosida olib borilishini nazorat qiladi. Chunki, belgilangan qoidalarining bir taxlilda qo'llanilishi butun respublika xududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlaydi.

«Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 50-moddasiga muvofiq, banklarni nazorat qilishdan asosiy maqsad bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojini har tomonlama hisobga olib va kuzatib boradi, kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy me'yorlarni (52-modda), shuningdek kreditlash hajmi limitlarini belgilash. Kapitalning yegarliligi, aktivlarning sifati, foydaligi va likvidliligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Shuning bilan birga Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash shartini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro hisob-kitoblarda zahiradagi aktiv va kafolatli sugurta fondi vazifasini bajarish bilan birga dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlakatimiz yushg oltip-valyuga zahirachari qiymagtshi ham yaratadi. Boshqa moliya muassasa-lari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyugaga ega bo'lish va valyuga

operaniyalarni o'tkazishga haqi borligita qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zahiralarshsh saqlovchi asosiy depozitariy bo'lib qolshtga lozim.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining ban-kiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi.

«O'zbekiston Respublikasttshp Markaziy banki to'g'risida»ga qonunshshg 44-moddasiga ^vofiq Markaziy bank hukumat bankiri sifatida hukumat muassasalari va talgiyuotlarshting hisob varaqalarini yuritadi, ana shu hisob varaqalarda mablaglarni jamgaradi va ulardan to'lovlarni amalga ongiradi; davlat qimmatbaho qogozlari bilan operatsiyalar o'gkazib turadi; dav-latga bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli ssudalar shakli-da yoki davlat obligadiyalarini xarid qilish larzida kredit be-radi; hukumat idoralariniig topshirig'iga binoan oltin bilap yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xa-zina vakili sifatida hukumat hisobvaraqaqlarini yuritadi, hukumatning moliya operatsiyalariga ko'maklashadi, bgodjet daro-mad va xarajatlari masalalari tozasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qogozlaripi joylagptiradi, ular bo'yicha hisobvaraqaqlar yuritadi va davlatning boshqa qarz majburiyat-lari bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Banklar banki sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob-kitob-to'lov operatsiyalarini o'tkazish, banklararo to'lovlarning hisob-kigob-kliring xizmatini uyushtirish tar-tibini belgilaydi, tijorat banklariga kreditlar, tegishliche ko'rsatmalar beradi.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o'z hisob varakalaridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foy-dalanaditar. Bundan tashqari, ularning o'z mablag'lari kamlik qilsa, Markaziy bankdan kredit olishlari, naqts pul bo'yicha ham Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin.

Shuningdsk, o'z hisob va kredit operatsiyalari bo'yicha stavka-larni mustaqil ravishda be.lgilaydi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy

to'lov vositasida banknotalar va tanga ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqaradi.

Markaziy bank va u vakolat bergan talabga ko'ra bir nominal qiymatdagi banknoga va tangalari boshqassha hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishgshi faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy rezerv miqdorini belgilab beradi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich 20-25% atrofida belgilangan bo'lib, u pul muomalasini barqarorlashtirishi va banklar likvidligini ta'minlashda ahamiyatga ega.

Tijorat banklarining vqtnsodnyotdagi ahamiyati va vazifalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank — bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashgi-rish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda bank — bu korxona deb ham izoh berilgadi. Ma'lumki, bank yaxlit olintan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarisht faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z daromadshsh ko'paytirishga va shu asosda, birinchidan, o'z asoschilari — aksionerlarnish* manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qiliishi ta'minlashdan iborat.

Tijorat banklarini bizning fikrimizcha shunchaki korxona emas, maxsus korxona deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksionerlariga, paychilariga foyda olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari bank tiziminish muhim bo'g'ini bo'lib, *kredit* resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu boshlar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston respublikasida tijorat banklari bank tizimi-ning Markaziy banqtsan keyingi ikkinchi poyunasi hisoblanadi.

1987 yildan boshlab gashkil qilingan bank tizimi bozor iqqisodi gamoyillariga mos ke^guvchi bank tizimining bosh-lang'ich pillapoyasi hisoblanadi. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav foidi va qo'yilmalar salmog'i oshib bormoqda, Hozirgi kunda O'zbekistonda 36 dan ortiq tijorat banklari faoliyat ko'rsatmoqda. Salmoqli ustav fondi, kredit resurslar va mi-jozlarga ega bo'lgan — katga banklar O'zbekiston sanoat qurilish banki, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, Pax-ta bank, Asakabank va boshqalar keng faoliyat olib bormoqaa. g) Tijorat banklarni tashkil qilishdagi ustav kapitali miqtsori ,1 yanvar 2000 yilda 2,5 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqtsoridagi mablagta ega bo'lyuni lozim.

Tijorat bayaklarnikg belgilarita qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat ban-kiga, aktsioner banklarga, kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka aeoslangan bankka bo'linadi. Yuksak ri-vojlangan mamlakatlardz tshshrag *banklarning aksarshg' kismya* mulk shakli bo'yicha aktsioner bank hisoblanadi.

Aktsioner banklar aktsioner jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdaga aktsioner banklar bo'lishi mumkin. Aktsionerlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olshn yo'li bilan amalga oshi-riladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aktsiyalari-ni sotib olinsh va aktsionerlari bo'lishi mumkin.

Ba`zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tash-kil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarniig qatnashchilari ham xuquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar — jismoniy shaxsnshtg pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat bashogar — universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus bank-lar ma'lum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini ngu yo'latishlarda kyauklarga, samaradorlikka erishshsha bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmokdarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport-import oneratsiyalarshsh o'shb boruvchi bagjlar, investitsiya banklari, zamin banklar kiritish mumkin.

Joylashish belgisiga karab tijorat banklar: xalqaro, res-publika, mshpaqaviy, viloyat banklariga bo'liishi mumkin.

Tarmokdarga xizmat ko'rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo'jalik, savdo va boshqa banklarga bo'ltshipsh mumkin.

Bozor iqqisodi sharoitida banktarishshg ahamiyati, ular-ning iqtisodga ta'siri o'sib bormoqda.

Kredit muassasalari aholi, korxona, tashkilotlar, kompa-niyalarning bo'sh pul mablaglarini yig'ish va joylashtirishdan tashqari, kashggal jamg'arishga, harakatlanuvchi kapital yordamida korxonalarning xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha in-vestitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo'jaligida progressiv yutuqtarga eriishshni ta'minlashi mumkin.

Tijorat banktarining iqtisodiy ahamiyati uning faoliyat doirasshshng ksng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagi asosny vazifalarni bajaradi.

1. Vaktincha bo'sh turgan pul mablaglarni yigish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va ahedmyi kredntlash.
3. Muomalaga kredit pullar (muomalarning kredit vositalari)ni chikarish.

4. Xalq xo'jalitida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.

5. Moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish.

6. Iktisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsul tatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funkdiyasi bajarib turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamgarmadarni yig'adigan. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kagshatli fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxona, raui-kilotlari, aholini, kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayo-nini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi vazifasini o'gaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqqincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari — sanoat, qigdloq xo'jaligi.. savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ish-lab chiqarishni ksp gaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funktsiyasi tijorat banklarni boshqa modiya institutlaridan ajratib turadi. Ti-jorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudatar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda muomalada iul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitepti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bashsgshng qarzi majburiyati bo'ladi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shakli-da hisob rakamidan olish mumkin. Bu hodda muomalada pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

tijorat banklariining muxmm funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishtsir, Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari yana qimmatbaho qog'ozdar chiqarish va joylashtirish bilan ngug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qila borib mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aktsioner tijorat banklarnishtg yuqori organi — aktsioner-larning umumiy yig'ilyapsh hisoblanadi. Har yili aktsioner-larni yig'ilishi usgavdagi va ustav kapitalidagi o'zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromad-irini tasdiqlash, bank kengashi tarkibini saylash, bankning sho''ba muassasatarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalar-ni ko'rib chiqishi mumkii.

Tijorat banklari quyidagi operatsnyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalar;
- batsk xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.'

Tijorat banklarni ochishga litsenziya (ruxstanoma)ni Marka-eiy bank beradi. U tijorat bankyaar faoliyatini olib borish bo'yicha iqtisodiy me'yorlar belgilab beradi va ularning baja-rilishini nazorat qilib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodi sha-roigida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'g'glanishining va bankning rivojda-nishining asosiy manbaidir.

Baik foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha olgyallar bo'lib, bular: bashshing rentabelyaigi, vaqtshgcha bo'sh mab-latlarni samarali ishlattyashi, turli xil pullik xizmatlar doirasini (faktoring, lizinx, trast xizmatlari va h.k.)

kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish hisobiga va boshqa omillar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy tamoyillaridan biri yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklar faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrayishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hodlarda banklarning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi, Yuqorida aytitgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning shu faoliyati yuqoridagi jihatdan risk (zarar ko'rish ehtimoli) bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat (aktsiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilinggan) banklar huquqiy va hususiy shaxslarga «Boshqaruv va boshqaruv faoliyati to'g'risidagi» qonunda nazarda tutilgan operatsiyalarni Namangan viloyatida naqd pul muomalasini tartibga solish, bankdan tashkari naqd pul aylanmasini kishlatirish yuzasidan .

I.2. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish yo'nalishlari.

Respublika Markaziy bankining bank tizimining 2010 yildagi faoliyati yakunlari hamda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Vazirlar Mahkamasining shu yil 21 yanvardagi majlisida belgilab berilgan 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlar va vazifalar ijrosiga bag'ishlangan kengaytirilgan Boshqaruv majlisi bo'lib o'tdi.Hisobot davrida Markaziy bankning Pul-kredit siyosati 2010 yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishiga, shuningdek 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratildi.2010 yilda mamlakatimiz bank tizimini likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Banklarning kapitallashtirishni oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar respublika bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichini umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lishini ta'minladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi qat'iy xalkaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo'lib faoliyat ko'rsatmoqda. Buni 2010 yil avgustida «Moody's» xalkaro reyting agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollari «barqaror» deb baxolangani hamda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki faoliyati «Fitch ratings», «Moody's» va «Standard & Poor's» kabi yetakchi xalxaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting baxosini olganliklari ham tasdiklab turibdi. Banklarning kredit va investitsion faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Hisobot yilida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy xajmi 35 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 11,5 trln. so'mdan oshib ketdi. 2010 yilda iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan 147 ta iqtisodiy nochor korxonaning 140 tasida ishlab chiqarish to'liq qayta tiklandi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korxonalardan 64 tasi esa strategik investorlarga sotildi.

Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli ya'ni 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsiya kreditlarining ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 2010 yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi. O'tgan davr davomida tijorat banklari tomonidan ushbu korxonalarga kiritilgan 156 mlrd. so'mlik investitsiyalar hisobiga jami 460 mlrd. so'mlik maxsulot ishlab chiqarildi, shundan 165 mln. AQSh doll. maxsulot eksport qilindi hamda 21 mingdan ortiq ishchi o'rinlari yaratildi. O'tgan yili banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berildi. Mazkur soxaga ajratilgan kreditlar miqdori 2009 yilga nisbatan 1,4 barobar oshib, 2011 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra 2 trillion 700 mln. so'mni tashkil etdi. Jumladan, mikrokreditlar xajmi 485 mlrd. so'mdan oshib, bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'paydi.

Mazkur kreditlar hisobiga xududlarda 280 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Aholining bo'sh pul mablag'larini kredit tashkilotlarining depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish choralari ko'rilayotgani, qulay omonat turlari taklif etilayotgani, ularning banklardagi jamg'armalari qonun bilan kafolatlangani va o'z vaqtida qaytarilayotgani omonatlar miqdorining 2009 yilga nisbatan 52,6 foiz oshib, hozirgi kunda 4,4 trln. so'mga yetishiga puxta zamin yaratdi. Bu fuqarolarimizning bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchidan dalolat beradi.

Respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 7,9 million donadan oshib ketdi. Savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalariga o'rnatilgan hisob-kitob terminallari soni esa 85 ming 741 taga yetdi. Shu bilan birga, majlisda banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish va mijozlar ishonchini yanada oshirish borasida mavjud ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgan ayrim tijorat banklari faoliyati tanqid qilindi. Tijorat banklari raxbarlari zimmalariga mamlakatimiz Prezidentining Vazirlar Maxkamasining 2010 yil yakunlariga bag'ishlab, shu yil 21 yanvarda o'tkazilgan majlisida 2011 yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalarni hamda bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish, ularning investitsion faoliyatini kuchaytirish, banklarning kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi va chet ellik investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustaxkamlash, iqtisodiyotdagi uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini yanada oshirish yetakchi xalkaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalkaro me'yorlar, mezonlar va standartlarga asoslangan holda bank tizimini baxolash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muxim vazifalar topshirildi.

Shuningdek, majlisda barcha tijorat banklari raxbarlari zimmasiga mamlakatimizda 2011 yilni - "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan bu borada qabul kilinadigan Davlat Dasturida belgilangan vazifalarni og'ishmay bajarilishini ta'minlash, banklarning barcha

bo'lim va filiallarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhitni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning xajmini oshirish, boshlangich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni faol davom ettirish vazifalari ham yuklatildi. Tijorat banklarining aktivlarini samarali boshqarish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Bank marjasini yoki daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi tafovutni barqaror tarzda saqlab turish. Bunga odatda «arzon» resurslarni jalb etib, keyin ularni nisbatan yuqori foizlar bilan joylashtirish orqali erishiladi. Jalb qilinadigan majburiyatlarga nisbatan kam xarajatli resurslar misol bo'lishi mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, mijoz hisob-varaqlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari boshqa resurslarga qilingan xarajatlarga nisbatan arzon bo'lib, ularning balans passividagi ulushini ko'paytirish banklarning foiz xarajatlarini qisqartiradi va daromadlarini oshiradi. Bank amaliyotida doim ham, bu kabi tartib qo'llanishining iloji yo'q. Chunki, bozor mexanizmi bunday imkoniyatni cheklaydi. Ayni paytda, bu oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan depozit vositasi bo'lib, uning bank resurs bazasidagi ulushining yuqori bo'lishi bank likvidliligini zaiflashtiradi.

2. Bankning yuqori darajadagi likvidliligini saqlab turish. Bunga mablag'larni davlat qisqa muddatli majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga, banklararo kreditlarga yo'naltirish, kassalarda va vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni ko'paytirish orqali erishiladi. Oxirgi ikkita omil o'z navbatida foydani kamaytiradi, chunki ular daromad keltiradigan aktivlar hisoblanmaydi. Demak, ushbu vazifaning mohiyati ana shu qarama - qarshi talablarni optimal ravishda uyg'unlashtirishdan iborat.

3. Kredit resurslarini ularning risk darajasiga, qarzlarning qaytarilishini ta'minlash shakllariga, daromadlilik darajasiga qarab boshqarish. Bunda har bir kredit guruhining bank kredit mablag'lari umumiy summasidagi ulushlari hamda ularning kredit siyosatiga muvofiq ravishda o'zgarishini aniqlash zarur.

4. Foiz stavkalari o'zgarishi riskidan himoya qilish. Bu vazifani hal etish uchun e'tiborni kredit portfelining balansdagi aktiv, passiv qismlar doirasida foiz stavkalari o'zgarishiga eng ta'sirchan tarkibiy qismlariga qaratish lozim bo'ladi. Kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad qarzga olingan mablag'lar bo'yicha foizli xarajatlar qisqarishiga nisbatan tezroq pasayganda riskni kamaytirishning mumkin bo'lgan yo'llarini ishlab chiqish talab qilinadi.

5. Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar va foiz stavkalari o'zgarishi bilan passivlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish. Ushbu vazifa zamirida foiz stavkalarini oshirish yoki pasaytirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi kabi funktsiyalar yotadi, negaki, bankning aksariyat passivlari qisqa muddatli, aktivlar (ssuda) talay qismining qaytarilishi esa uzoq muddatlarga ega.

Jalb etilgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari o'sishi havfi tug'ilganda bank foydasini himoyalash uchun qarshi chora-tadbirlarni qo'llash zarur.

Tijorat banklari aktivlarini asosan to'rt kategoriyaga bo'lib o'rganish mumkin: kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar, ssudalar, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar va asosiy vositalar. Bank aktivlari sifati uning tarkibi bilan belgilanadi. Respublika tijorat banklari aktivlari tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

I.3. Bank tizimini islox qilish va rivojlantirishning bosqichlari va ularga tavsifnoma.

Bank tizimi va uning rivojlanishi 2010 yilda bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlarida belgilab berilgan bank tizimi barqarorligini yanada kuchaytirish, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilinishini ta'minlash vazifalariga qaratildi, xususan : tijorat banklarining kapitallashuvi darajasini oshirish; aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etish tadbirlarini kengaytirish; banklarning investitsion faolligini, xususan , ishlab chiqarishni

modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan bog'lik investitsion loyixalarni moliyalashdagi rolini oshirish, bankrot xolatidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklashdagi ishtirokini yanada kuchaytirish; aholi bandligini oshirishni rag'batlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy

Xizmatlar mahsulotlar turi	Tijorat banklari tomonidan quyidagi shaklda yetkazib beriladi.
----------------------------	--

qo'llab-quvvatlashni kengaytirish borasidagi vazifalar ijrosi ta'minlandi. Shuningdek, bank muassasalari tarmog'ini kengaytirish, mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish sifatini yanada oshirish va ularning zamonaviy turlarini joriy etish, kredit axboroti tizimini takomillashtirish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 31 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat, 13 tasi aktsiyadorlik tijorat, 10 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublika hududlarida banklarning 810 ta filiali faoliyat ko'rsatmokda. 2010 yilda respublika bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishining dinamikasi, tizimning barqaror rivojlanib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Jadval 1.3.2

Mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat turlari.

Strategik xizmatlar: mijozga strategik islohotlarni xarakterda yo'nalishida va faoliyat ko'lamida yoki hayot tarzida ularga yetishish imkonini beradi.	Riskli kapital: qarzlarini joylashtirish kredit kartochkalari sindikatlashgan qarzlar qo'shilish va so'ndirish omonat operatsiyalari jamg'arma schyotlari.
Operativ xizmatlar bank mijozning yillik rejalashtirilgan maqsadlarga optimal darajada erishishiga imkon beradi.	Istomol krediti. Taminlanmagan kredit moliya bozorida operatsiyalar depozit hisob – varaqalari chekli klirint valyuta operatsiyalari
Bank mijozlari muammolarini hal qilish soxasidagi xizmatlar. Bank mijozining rejalashtirilmagan muamolarini tez yechimini topishiga imkoniyat beradi.	Qimmatliklarini saqlash taminlangan kredit kredit kartochkalari xayotni su-irtalash kreditni sug'irtalash faktoring lizing.
Krezis sharoitida bank xizmatlari; Bank mijozga kutilmagan krezis holatda profesional yordam olish imkonini beradi.	Qayta moliyalashtirish ikkilamchi omonatlar sug'irta majburiyati kompaniyani sotish.

Xususan , banklarning kapitallashuv darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali 36,2 foizga oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga 4 100,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2010 yil yakuni bo'yicha bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 23,4 foizni tashkil etib, bu xalkaro bank nazorati bo'yicha Bazel ko'mitasi tomonidan tavsiya qilingan 8 foizlik ko'rsatkichdan qariyb 3 barobar ko'pdir. 2010 yilda tijorat banklari tomonidan ustav kapitalini ko'paytirish uchun chiqarilgan qo'shimcha aksiyalar hajmi 570 mlrd. so'mni tashkil qildi va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish ishlari olib borildi. Banklar tomonidan chiqarilgan aksiyalarning 25 foizdan ortig'i fond birjalarida sotildi. Bugungi kunda 17 ta bank aksiyalari -"Toshkent" fond birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu banklarning qimmatli qog'ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilib borilmoqda. Banklar tomonidan jalb qilingan jami depozitlar xajmi 52 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 13,2 trlya. so'mga yetdi. Jumladai, aholining kredit tashkilotlaridagi depozitlari

hajmi 1,5 barobarga oshib, 4,4 trln. so'mdan zbydni tashkil etdi. 2010 yil oxiriga jismoniy shaxslar tomonidan ochilgan bank hisobvaraklari soni 1000 ta katta yoshli aholiga 1012 tani tashkil etdi. Bu esa xalkaro bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining bo'limlari sonini ko'paytirish ishlari davom ettirildi. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklarining joylardagi mini bank va maxsus kassalarining umumiy soni 3967 taga, shundan qishloq joylardagi soni 2120 taga yetdi. Bundan tashqari, aholidan kommunal va boshqa majburiy to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi ixtisoslashtirilgan ko'chma kassalar soni 365 tadan ortdi. Respublikamizda bank xizmatlaridan foydalanish darajasi xalkaro amaliyot ko'rsatkichlari doirasida bo'lib, 2010 yil oxiriga 100 mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49 tani tashkil qildi. Banklar tomonidan «Bank-mijoz» dasturi asosida xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar soni 2010 yilning 1 yanvariga nisbatan 24 foizga ortib, 11,1 mingtadan oshdi. Naqd pulsiz hisob- kitoblarni rivojlantirish, jumladan, plastik kartochkalar orqali to'lovlarni o'tkazish tizimini takomillashtirishga bank tizimi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jiddiy e'tibor qaratildi va bu borada sezilarli ishlar qilindi. Tijorat banklari tomonidan 2010 yil davomida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 1850 ming donaga, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida o'rnatilgan terminallar soni 25110 donaga oshdi. 2011 yilning 1 yanvariga kelib, muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 7909 mingtaga, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida o'rnatilgan terminallar soni 85741taga, bankomat va infokiosklar soni 807 taga yetdi. Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 5,7 trln. so'mni tashkil etib, 2009 yilga nisbatan 2,5 barobarga oshdi. Qarz oluvchilarning kredit tarixi axboroti tizimini takomillashtirish. Markaziy bankning Kredit axboroti milliy institutida shakllantirilgan qarzdorlar to'g'risida kredit axborotining yagona reestri muntazam yuritilib takomillashtirilib borilmokda. Institut va banklar o'rtasida yo'lga qo'yilgan qarzdorlar to'g'risidagi kredit axboroti almashinuvi tizimi tijorat

banklarining kredit operatsiyalari bo'yicha tavakkalchiliklarini kamaytirishga yordam bermoqda. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra institut bazasida 732 mingdan ortiq qarzdorning 1243 mingdan ortiq kredit shartnomasi to'g'risida ma'lumotlar jamlangan bo'lib, bank tizimi jami kredit portfelidagi kreditlar va qarz oluvchilar to'grisida axborot mujassamlashgan . Amalga oshirilgan ishlar natijasida bank tizimining barqaror rivojlanib borayotganligi nufuzli xalkaro reyting kompaniyalari tomonidan ham tasdiqlanmoqda. Jumladan, 2010 yilning avgust oyida «Mudis investore servis» reyting agentligi tomonidan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O'zbekiston bank tizimi nafaqat o'zining barqarorligini saqlab qolganligi, shu bilan birga, banklar aktivlari sifatining yaxshilanishi, kapitallashuv darajasining oshirilishiga erishilganligi e'tirof etildi va respublikamiz bank tizimiga «barqaror» reyting bahosi berildi. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizning 15 ta tijorat banki (TIF Milliy banki, Asakabank, Uzsanoatqurilishbank , Qishloq qurilish bank, Agrobank, Mikrokreditbank, Ipoteka-bank, Turonbank, Alokabank, Ipak Yo'li banki, Hamkorbank, Kapitalbank, Kredit-Standart bank, Xalq banki) nufuzli xalkaro reyting kompaniyalarining («Fitch reytinge», «Mudis investore servis» va «Standart end purs») «barqaror» reytingiga egadir. Nobank kredit tashkilotlari tizimining rivojlanishi Respublikada nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish borasida ko'rilgan chora- tadbirlar natijasida ularning soni, aholining keng qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyati kengayib bormokda 2011 yilga mo'ljallangan monetar siyosat va bank tizimining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzusidagi dasturiy ma'ruzasi hamda Vazirlar Mahkamasi majlisidagi 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasida belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishiga qaratiladi. Xususan : inflyatsiyaning maqsadli

ko'rsatkichlar doirasida bo'lishini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini qo'llab-quvvatlash; respublika iqtisodiyotining jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va o'rnini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy qayta o'zgarishlar hamda yuqori texnologik zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish siyosatini davom ettirish; qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va texnik yangilashga alohida e'tibor qaratgan holda ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoklarini jadal yangilash; infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal rivojlantirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ushbu sohaga maksimal darajada qulay ishbiarmonlik muhiti yaratish; bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratish muammosini izchil hal etish borasidagi tadbirlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash 2011 yilgi pul-kredit siyosatining va bank tizimi faoliyatining eng muhim ustuvor yo'nalishlari qilib belgilab olindi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya operatsiyalarining, ya'ni bank tizimining tashqi aktivlari o'sishi hisobiga vujudga kelgan ortiqcha likvidlikni Markaziy bankning maxsus depozitlariga jalb qilish operatsiyalarining o'rtacha oylik hajmini pul agregatlarining maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hamda to'lov balansining ijobiy sal dosini inobatga olgan holda 1,3 martagacha oshirish mo'ljallanmoqda. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga xorijiy valyutadagi mablag'larni jamlash davom ettiriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2011 yilda ushbu jamg'armaga qo'shimcha ravishda 1,8 trln. so'mdan ortiq mablag'lar jalb etilishi ko'zda tutilmokda, bu esa, o'z navbatida, pul massasini ushbu miqdorda asossiz o'sishini oldini olishga va uni maqsadli chegarada ushlab turishga xizmat kiladi. 2011 yilda ushbu jamg'arma tomonidan 780 mln. AQSh dollaridan ortiq xajmdagi investitsion loyihalarning moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. Inflyatsiyaning maqsadli parametridan kelib chiqqan holda,


iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida 2011 yilning 1 yanvaridan qayta moliyalash stavkasi amaldagi 14 foizdan 12 foizga tushirildi. Qayta moliyalash stavkasining 2 foiz punktiga tushirilishi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishiga, ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan: - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirishga, - qishloq joylarda uy-joy qurilishiga, - kichik biznes sub'ektlari va xususiy tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar va mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari pasayadi. 2011 yilda ham valyuta almashuv kursi eksportni rag'batlantiruvchi va inflyatsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizm sifatida ko'llaniladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2011 yilga mo'ljallangan maqsadli parametrlaridan hamda eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish vazifalaridan kelib chiqqan holda so'mning almashuv kursi deval vatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda, asosiy e'tibor so'mning real effektiv almashuv kursi dinamikasiga qaratiladi, So'mning deval vatsiya darajasi real effektiv almashuv kursining pasayishini ta'minlab, eksportning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Monetar siyosat instrumentlari va ulardan foydalanish 2011 yilda ham Markaziy bank muomaladagi pul massasini tartibga solishda monetar siyosatning bozor instrumentlaridan foydalanish bilan bir qatorda ularning samaradorligini oshirish boradi. Xususan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidlik darajasining yetarli miqdorda bo'lishini ta'minlash maqsadida vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar monitoringa muntazam ravishda amalga oshirib boriladi va ularning optimal darajada bo'lishi uchun barcha z'ruriy choralar ko'riladi. Shuningdek, majburiy rezervlar normasi bank tizilishi; darajasida kelib chiqqan holda o'zgartirib boriladi. Amaliyotta muvofiq yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Banklardagi omonatlar hajmining oshishida aholi real daromadlarining o'sishi hamda bank tizimining barqarorligi asosiy omil bo'lgani

holda, banklardagi omonatlarning to'liq qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va ulardan olinadigan foiz daromadlar solikdan ozod etilganligi hamda 410 xildan ortiq omonat turlari taklif qilinayotganligi bank depozitlarini qulay, xavf- xatarsiz va barqaror daromadli moliyaviy instrumentga aylantirdi. Shuningdek, 2010 yil davomida banklarning 172,4 mlrd. so'mlik uzoq muddatli obligatsiyalari investorlar o'rtasida joylashtirilgan bo'lsa, aholi va xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga sotilgan depozit sertifikatlari qoldig'i 281,7 mlrd. so'mni tashkil kildi. Banklarning kapitallashuv darajasi va depozitlari hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga ustahkam zamin bo'ldi. Tijorat banklarining umumiy aktivlari 2010 yil boshiga nisbatan 32,1 foizga oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra qariyb 20,8 trln. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilda banklar tomonidan ajratilgan kreditlar koldig'i 35 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 11,5 trln. so'mga yetdi. Bunda ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi. Banklarning kredit portfelida ham sezilarli sifat o'zgarishlar ro'y berdi. Umumiy kredit portfelida 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsion kreditlarning ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 75,2 foizga yetdi. 2010 yilning o'zida banklar tomonidan investitsiya maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi 3 250 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, 2009 yilga nisbatan 35 foizga oshdi. Iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, qayta tiklash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va keyinchalik ushbu korxonalarni strategik investorlarga sotish borasida ham banklar tomonidan salmikli ishlar amalga oshirildi.

II bob. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlari tahlili.

II.1. Bank tizimini islox qilish tahlili.


Respublika Markaziy bankining bank tizimining 2010 yildagi faoliyati yakunlari hamda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Vazirlar Makkamasining shu yil 21 yanvardagi majlisida belgilab berilgan 2011 yilga mo'ljallangan eng muxim ustuvor yo'nalishlar va vazifalar ijrosiga bag'ishlangan kengaytirilgan Boshqaruv majlisi bo'lib o'tdi. Hisobot davrida Markaziy bankning Pul-kredit siyosati 2010 yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishiga, shuningdek 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratildi. 2010 yilda mamlakatimiz bank tizimini likvidligini yanada mustaxkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Natijada, tijorat banklarining jami kapitali 2009 yilga nisbatan 1,4 barobar oshib, 2011 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra 4,1 trln. so'mni tashkil etdi. 2.3.1-dinamika



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining www.cbu.uz sayti


Banklarning kapitallashuvini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar respublika bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichini umumiy qabul qilingan

xalkaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lishini ta'minladi. Bank aktivlari 2009 yilga nisbatan 32,1 foiz o'sib, 20,7 trln. so'mdan oshib ketdi. 2.3.2-dinamika



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markiziy bankining www.cbu.uz sayti

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi qat'iy xalkaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo'lib faoliyat ko'rsatmokda. Buni 2010 yil avgustida «Moody's» xalkaro reyting agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollari «barqaror» deb baxolangani hamda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki faoliyati «Fitch ratings», «Moody's» va «Standard & Poor's» kabi yetakchi xalxaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting baxosini olganliklari ham tasdiklab turibdi. Banklarning kredit va investitsion faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Hisobot yilida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy xajmi 35 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 11,5 trln. so'mdan oshib ketdi. 2010 yilda iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan 147 ta iqtisodiy nochor korxonaning 140 tasida ishlab chiqarish to'liq qayta tiklandi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korxonalardan 64 tasi esa strategik investorlarga sotildi.




Manba: O'zbekiston Respublikasi Markiziy bankining www.cbu.uz sayti

Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli ya'ni 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsiya kreditlarining ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 2010 yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi.

O'tgan davr davomida tijorat banklari tomonidan ushbu korxonalarga kiritilgan 156 mlrd. so'mlik investitsiyalar hisobiga jami 460 mlrd. so'mlik maxsulot ishlab chiqarildi, shundan 165 mln. AQSh doll. maxsulot eksport qilindi hamda 21 mingdan ortiq ishchi o'rinlari yaratildi.

O'tgan yili banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berildi. Mazkur soxaga ajratilgan kreditlar miqdori 2009 yilga nisbatan 1,4 barobar oshib, 2011 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra 2 trillion 700 mln. so'mni tashkil etdi. Jumladan, mikrokreditlar xajmi 485 mlrd. so'mdan oshib, bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'paydi.

2.3.4-dinamika



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markiziy bankining www.cbu.uz sayti


Mazkur kreditlar hisobiga xududlarda 280 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Aholining bo'sh pul mablag'larini kredit tashkilotlarining depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish choralari ko'rilayotgani, qulay omonat turlari taklif etilayotgani, ularning banklardagi jamg'armalari qonun bilan kafolatlangani va o'z vaqtida qaytarilayotgani omonatlar miqdorining 2009 yilga nisbatan 52,6 foiz oshib, hozirgi kunda 4,4 trln. so'mga yetishiga puxta zamin yaratdi. Bu fuqarolarimizning bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchidan dalolat beradi.

2.3.5-dinamika.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markiziy bankining www.cbu.uz sayti

Respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 7,9 million donadan oshib ketdi. Savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalariga o'rnatilgan hisob-kitob terminallari soni esa 85 ming 741 taga yetdi. 2.3.6-dinamika.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markiziy bankining www.cbu.uz sayti

Shu bilan birga, majlisda banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish va mijozlar ishonchini yanada oshirish borasida mavjud ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgan ayrim tijorat banklari faoliyati tanqid qilindi.

Majlisda tijorat banklari rahbarlari zimmlariga mamlakatimiz Prezidentining Vazirlar Maxkamasining 2010 yil yakunlariga bag'ishlab, shu yil 21 yanvarda o'tkazilgan majlisida 2011 yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalarni hamda bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish, ularning investitsion faoliyatini kuchaytirish, banklarning kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi va chet ellik investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustaxkamlash, iqtisodiyotdagi uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini yanada oshirish yetakchi xalkaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalkaro me'yorlar, mezonlar va standartlarga asoslangan holda bank tizimini baxolash

ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muxim vazifalar topshirildi.

Shuningdek, majlisda barcha tijorat banklari rahbarlari zimmasiga mamlakatimizda 2011 yilni - "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan bu borada qabul kilinadigan Davlat Dasturida belgilangan vazifalarni og'ishmay bajarilishini ta'minlash, banklarning barcha bo'lim va filiallarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhitni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning xajmini oshirish, boshlangich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni faol davom ettirish vazifalari ham yuklatildi.

Tijorat banklarining aktivlarini samarali boshqarish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Bank marjasini yoki daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi tafovutni barqaror tarzda saqlab turish. Bunga odatda «arzon» resurslarni jalb etib, keyin ularni nisbatan yuqori foizlar bilan joylashtirish orqali erishiladi. Jalb qilinadigan majburiyatlarga nisbatan kam xarajatli resurslar misol bo'lishi mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, mijoz hisob-varaqlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari boshqa resurslarga qilingan xarajatlarga nisbatan arzon bo'lib, ularning balans passividagi ulushini ko'paytirish banklarning foiz xarajatlarini qisqartiradi va daromadlarini oshiradi. Bank amaliyotida doim ham, bu kabi tartib qo'llanishining iloji yo'q. Chunki, bozor mexanizmi bunday imkoniyatni cheklaydi. Ayni paytda, bu oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan depozit vositasi bo'lib, uning bank resurs bazasidagi ulushining yuqori bo'lishi bank likvidliligini zaiflashtiradi.

2. Bankning yuqori darajadagi likvidliligini saqlab turish. Bunga mablag'larni davlat qisqa muddatli majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga, banklararo kreditlarga yo'naltirish, kassalarda va vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni ko'paytirish orqali erishiladi. Oxirgi ikkita omil o'z navbatida foydani kamaytiradi,

chunki ular daromad keltiradigan aktivlar hisoblanmaydi. Demak, ushbu vazifaning mohiyati ana shu qarama - qarshi talablarni optimal ravishda uyg'unlashtirishdan iborat.

3. Kredit resurslarini ularning risk darajasiga, qarzlarning qaytarilishini ta'minlash shakllariga, daromadlilik darajasiga qarab boshqarish. Bunda har bir kredit guruhining bank kredit mablag'lari umumiy summasidagi ulushlari hamda ularning kredit siyosatiga muvofiq ravishda o'zgarishini aniqlash zarur.

4. Foiz stavkalari o'zgarishi riskidan himoya qilish. Bu vazifani hal etish uchun e'tiborni kredit portfelining balansdagi aktiv, passiv qismlar doirasida foiz stavkalari o'zgarishiga eng ta'sirchan tarkibiy qismlariga qaratish lozim bo'ladi. Kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad qarzgga olingan mablag'lar bo'yicha foizli xarajatlar qisqarishiga nisbatan tezroq pasayganda riskni kamaytirishning mumkin bo'lgan yo'llarini ishlab chiqish talab qilinadi.

5. Foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchan aktivlar va foiz stavkalari o'zgarishi bilan passivlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish. Ushbu vazifa zamirida foiz stavkalarini oshirish yoki pasaytirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi kabi funktsiyalar yotadi, negaki, bankning aksariyat passivlari qisqa muddatli, aktivlar (ssuda) talay qismining qaytarilishi esa uzoq muddatlarga ega.

Jalb etilgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari o'sishi havfi tug'ilganda bank foydasini himoyalash uchun qarshi chora-tadbirlarni qo'llash zarur.

Tijorat banklari aktivlarini asosan to'rt kategoriyaga bo'lib o'rganish mumkin: kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar, ssudalar, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar va asosiy vositalar. Bank aktivlari sifati uning tarkibi bilan belgilanadi. Respublika tijorat banklari aktivlari tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibi va dinamikasi
(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.
1. Kassa va unga tenglashtirilgan aktivlar	38,1	28,5	22,9	22,2	24,4	33,7	41,8	37,7	33,7
2. Kreditlar	58,4	67,1	71,6	71,8	68,8	56,9	51,3	52,8	54,5
3. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar	0,9	0,9	1,0	1,2	1,0	2,2	0,6	0,5	0,4
4. Asosiy vositalar	1,7	2,7	3,3	3,2	3,1	2,6	2,5	2,4	2,7
5. Boshqa aktivlar	0,9	0,8	1,2	1,6	2,7	4,6	3,8	6,6	8,7
Jami aktivlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2.3.2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2001-2009 yillarda respublikamiz tijorat banklari aktivlari tarkibida salmog'iga ko'ra kreditlar birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa, xalqaro bank amaliyotida kreditlarning salmog'i bo'yicha mavjud bo'lgan tendentsiyaga mos keladi, lekin 2004 yildan boshlab, kreditlarning bank aktivlaridagi salmog'ining pasayishi kuzatilmoqda. Xalqaro bank amaliyoti tajribalari shuni ko'rsatadiki, kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida kamida 60 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Bank aktivlari tarkibida kreditlardan keyin kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar egallaydi, bu esa, tijorat banklari uchun salbiy holat hisoblanadi, ayni paytda 2004 yildan boshlab esa, bu ko'rsatkich o'sish tendentsiyasiga ega. Tahlil qilinayotgan davrda respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga jalb qilingan investitsiyalari bank aktivlari hajmidagi salmog'i juda past bo'lib, 2006 yil ushbu

ko'rsatkich eng yuqori darajaga, ya'ni 2,2 foizni tashkil etgani holda, shu yildan boshlab sezilarli darajada pasayish sur'atiga ega bo'lgan. Ushbu holat esa, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarining rivojlanmaganligini bildiradi. Demak, respublikamizdagi mavjud bank tizimi aktivlarining tarkibi aktivlarning samarali emasligidan dalolat beradi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv operatsiyalarini rivojlantirish, ular aktivlarini samarali boshqarishga va likvidliligi va daromadliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jadval 2.3.4.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari tarkibi va dinamikasi.


(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2007y	2008y	2009y	2010y
1.Kassa va unga tenglashtirilgan aktivlar	33,7	41,8	37,7	33,7
2. Kreditlar	56,9	51,3	52,8	54,5
3.Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar	2,2	0,6	0,5	0,4
4.Asosiy vositalar	2,6	2,5	2,4	2,7
5.Boshqa aktivlar	4,6	3,8	6,6	8,7
Jami aktivlar	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadval 2.2.1 ma'lumotlari taxlili shuni ko'rsatadiki, 2007-2010 yillarda respublikamiz tijorat banklari aktivlar tarkibida salmog'li ko'ra kreditlar birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa, halqaro bank amaliyotida kreditlarning salmog'i bo'yicha mavjud bo'lgan tendentsiyaga mos keladi, lekin 2007 yilda boshlab, kreditlarning bank aktivlaridagi salmog'ining pasayib ko'zatilmoqda. Halqaro bank amaliyoti tajribalari shuni ko'rsatadiki, kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida kamida 60 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Bank aktivlari tarkibida kreditlarning

keyin kassadagi naqd pullar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar egalaydi, bu esa, tijorat banklari uchun salbiy holat hisoblanadi, ayni paytda 2008 yildan boshlab bu ko'rsatkich o'sish tendiyasiga ega. Tahlil qilinayotgan davrdan respublikamiz tijorat banklari qimmatli qog'ozlar jalb qilingan investitsiyalar bank aktivlari xajmidagi salmog'li juda past bo'lib, 2009 yil ushbu ko'rsatkich eng yuqori darajaga, ya'ni 2,2 foizni tashkil etgan holda, shu yildan boshlab sezilarli darajada pasayish sur'atiga ega bo'lgan. Ushbu holatesa, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozi bozorida operatsiyalarning rivojlanmaganligining samarali emasligidan dalolat beradi.

Biz, quyida respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan aktiv operatsiyalarining samaradorligini ko'rib chiqamiz (2.3.1-diagramma).



2.3.7-diagramma O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokining o'sish sur'ati, (2000 yil q 100,0%)

Tijorat banklari aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'i past bo'lgani holda, ular hajmining o'zgarish dinamikasi asosan o'sish tendentsiyasiga egaligini ko'rishimiz mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilinayotgan davrda respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini ijobiy baholab

bo'lmaydi. Agar 2000 yilda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini 100,0 foiz deb qabul qilsak, bu hol 2004 yilgacha muntazam o'sish tendentsiyasiga ega, aksincha, 2007 yildan keskin pasayish holati sodir bo'ldi. Buning sababi shundaki, tijorat banklari tomonidan Markaziy bankning obligatsiyalariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi oshishi va ularning muddati tugashi bilan keskin kamayishi kuzatilgan.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv operatsiyalarini davlatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish yo'li bilan rivojlantirish, fikrimizcha, maqsadga muvofiq emas. Chunki O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2005 yildan boshlab, davlat byudjetida profitsitga erishib kelinmoqda.

Davlatning qimmatli qog'ozlari esa, davlat byudjeti defitsitini qoplashning noinflyatsion manbai hisoblanadi va ularning emissiya hajmi davlat byudjeti defitsitining miqdori va darajasi bilan belgilanadi.


Shuning uchun ham, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini kengaytirishning boshqa usullaridan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, tijorat banklarida daromadliligi sezilarli darajada yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'i nihoyatda pastdir.

Tijorat banklari passivlarini boshqarish deganda, bankning likvidliligi va daromadliligining oqilona darajasiga erishishni ta'minlagan holda resurslarni jalb qilish tushuniladi.

Bank passivlarini boshqarishning muhim jihati – depozitlarga nisbatan qo'llaniladigan foiz stavkalarining turlaridan oqilona foydalanish hisoblanadi. Ma'lumki, bank mijozlarining depozitlariga suzib yuruvchi va qat'iy belgilangan stavkalarda foiz to'laydi. Foiz stavkalarining bozor darajasini o'zgarishi bankning foizli daromadlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tijorat banki suzib yuruvchi foiz stavkalarida jalb qilingan resurslarni imkoniyat qadar suzib yuruvchi foiz stavkalaridagi aktivlarga joylashtirishi kerak. Faqat ana shu yo'l bilan

bankning spread va marjasi darajasini foiz stavkalari tebranishining salbiy taʼsiridan saqlab qolishi mumkin. Aks holda, bank foiz stavkalarining keskin tebranishlaridan zarar koʻrishi ehtimoli bor.

Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklari passivlari tarkibida depozitlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Shu bois, tijorat banklarining depozitlarini boshqarish amaliyotini tahlil qilish uchun tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasini tahlil qilamiz.



2.3.8-diagramma Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlarining tarkibi va dinamikasi, (foiz hisobida)

Keltirilgan 2-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki, keyingi yillarda muddatli depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmogʻi pasayish tendentsiyasiga ega boʻlgan. Ushbu tendentsiyaning yuzaga kelishi mazkur davr mobaynida talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmogʻining oʻsish tendentsiyasiga ega boʻlganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga tahlil qilinayotgan davrda respublikamiz tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida jamgʻarma

depozitlarining salmog'i kichikligicha qolmoqda. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarining asosiy qismini muddatli va jamg'arma depozitlari tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida aholining jamg'arma depozitlari barqaror resurs manbai sifatida muhim o'rin tutadi. Chunki, ularga to'lanadigan foiz stavkalari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalariga nisbatan past foizni tashkil etadi.


Tahlil qilinayotgan davrda respublikamiz tijorat banklari depozitlarining tarkibi barqaror ya'ni depozitlar umumiy hajmida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

Shuningdek, talab qilib olinguncha depozitlarning depozit bazasi umumiy hajmidagi salmog'i o'zgaruvchan xarakterga ega. 2004 yildan boshlab, talab qilib olinguncha depozitlar salmog'ining o'sishi kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkich xalqaro bank amaliyotidagi me'yoriy andozalarga (me'yoriy ko'rsatkich 30 %) nisbatan qiyosiy taqqoslanganda me'yordan ancha yuqori hisoblanadi va bank depozit bazasining zaifligi hamda tashqi ta'sirga uzviy bog'liqligidan, 2009 yilda ushbu ko'rsatkich 61,0 foizni tashkil etishi, respublikamiz tijorat banklari depozitlarining yetarli emasligidan, natijada, respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining holati yomonlashayotganligidan dalolat beradi.

Bank passivlarini boshqarishning muhim jihatlaridan biri, qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan bankning resurslar bazasini mustahkamlash hisoblanadi.

Tijorat banklarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezilganda qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqariladi. Bunda asosiy muammo qimmatli qog'ozlarni mo'tadil bozor bahosida sotish hisoblanadi.

Biz, quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.



2.3.9-diagramma. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning passivlar hajmidagi salmog'i, (foiz hisobida)

2.3.9-diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning salmog'i 2009 yilda 2001 yilga nisbatan 1,18 foizli punktga o'sgan. Shuni qayd etish joizki, hozirda respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan oddiy va imtiyozli aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar ularning majburiyatlari tarkibida aks etmaydi, balki ularning ustav kapitalida hisobga olinadi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning bank jami passivlari umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi, ularni sotish asosida olingan mablag'lar tijorat banklarining passivlarini boshqarishda amaliy ahamiyat kasb etmayotganligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish bilan bog'liq operatsiyalarining rivojlanmaganligi

quyidagi omillar bilan izohlanadi, ya'ni tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari investorlar uchun investitsion jozibadorligining yo'qligi, respublikamiz qator tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish amaliyotining shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Quyida biz, tijorat banklari aktivlari va passivlariga ta'sir qiluvchi omillar va ular orasidagi bog'lanishni regressiya va korrelyatsiya tahlillari orqali qarab chiqamiz.

2.3.5-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ma'lumot²

Yillar	Kredit qo'yilmalari hajmi, mln. so'm Y	So'mda berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi, % X ₁	So'mda berilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi, % X ₂	Majburiy zaxira stavkasi, (%) X ₃	Qayta moliyalash stavkasining o'rtacha yillik darajasi, % X ₄
2000	918,3	25,7	22,8	25	32,3
2001	1866,6	28,0	20,3	25	26,8
2002	2630,3	32,9	26,0	20	34,5
2003	3161,2	28,1	24,5	20	27,1
2004	3595,5	21,2	17,6	18	18,8
2005	3876,0	18,8	14,9	15	16,0
2006	4095,4	19,4	16,4	15	14,0
2007	4757,4	18,5	15,5	13	14,0
2008	6371,9	16,4	16,8	15	14,0
2009	8556,8	15,9	15,9	15	14,0

Jadvaldan $Y = 7390,62 - 324,2x + 527,9x - 142,8x - 170,13x$ regressiya tenglamasini hosil qilamiz. Bu ta'sir etuvchi omillar orasida eng katta musbat ta'sir

² Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби.

etuvchisi x_2 - uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foizi bo'lib, u 0,53 % ga teng, qolganlari barchasi manfiy ta'sir etayapti.

Manfiy ta'sir etuvchilardan x_1 - qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foizi 0,32 % ga teng, x_3 - majburiy zaxira stavkasi 0,14 %, x_4 -qayta moliyalash stavkasining o'rtacha yillik darajasi 0,17 % ga teng.

Ko'p omilli regressiya tahlilidan ham ko'rinib turibdiki, manfiy ta'sir etuvchilar orasida eng kattasi majburiy zaxira stavkasi ekan.

Korrelyatsiya koeffitsienti R q 0,86 ga teng. Bu degani so'z capital qo'yilmalari hajmi va yuqorida ko'rsatilgan 4 ta omil orasidagi bog'lanish darajasi yuqoriligini bildiradi. Determinatsiya koeffitsienti DqR^2 q 0,74.

Bundan kelib chiqadiki, kapital qo'yilmalari hajmi o'zgarishining 74 foizga teng bo'lishi yuqoridagi 4 ta omilga bog'liq. Qolgan foizlar esa, bu yerda ko'zda tutilmagan omillarga bog'liq.

Hosil qilingan korrelyatsiya modelining haqqoniyligi tekshirib ko'riladi.

Buning uchun t – statistikasi amalga oshiriladi. Bu yerda $t_r = \frac{r}{m_r}$ formuladan

foydalanilgan. Yuqoridagi natijalarga asosan, $m_r = \sqrt{\frac{1-0,7406}{10-2}} = \sqrt{\frac{0,1374}{8}} = 0,1311$

hosil qilinadi. 10 – kuzatishlar soni. Bundan $t_r = \frac{0,8606}{0,1311} = 6,56$ kelib chiqadi.

Erkinlik darajasi (v q 10 – 2 q 8) 8 bo'lganligi uchun ushbu natija St dent jadvalidagi natijalar bilan solishtirilganda (1,86; 2,3; 3,36) har uchchala holatda ham, t_r q 6,56 ko'rsatkich ulardan katta. Demak, korrelyatsiya munosabati uchchala ehtimollik uchun ham haqqoniy hisoblanadi.

II.2. Bank tizimini erkinlashtirish yo'nalishlari tahlili.

Bank tizimi va uning rivojlanishi 2010 yilda bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlarida belgilab berilgan bank tizimi barqarorligini yanada kuchaytirish, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilinishini ta'minlash vazifalariga qaratildi, xususan

: tijorat banklarining kapitallashuvi darajasini oshirish; aholi va xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etish tadbirlarini kengaytirish; banklarning investitsion faolligini, xususan , ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan bog'lik investitsion loyixalarni moliyalashdagi rolini oshirish, bankrot xolatidagi

Xizmatlar mahsulotlar turi	Tijorat banklari tomonidan quyidagi shaklda yetkazib beriladi.
----------------------------	--

Stratetik xizmatlar: mijozga stratetik islohotlarni xarakterda yo'nalishida va faoliyat ko'lamida yoki hayot tarzida ularga yetishish imkonini beradi.	Riskli kapital: qarzlarni joylashtirish kredit kartochkalari sindikatlashgan qarzar qo'shilish va so'ndirish omonat operatssiyalari jamg'arma schyotlari.
Operativ xizmatlar bank mijozning yillik rejalashtirilgan maqsadlarga optimal darajada erishishiga imkon beradi.	Istemol krediti. Taminlanmagan kredit moliya bozorida operatssiyalar depozit hisob – varaqalari chekli klirint valyuta operatssiyalari
Bank mijozlari muammolarini hal qilish soxasidagi xizmatlar. Bank mijozining rejalashtirilmagan muamolarini tez yechimini topishiga imkoniyat beradi.	Qimatliklarini sao'lash taminlangan kredit kredet kartochkalari xayotni su-irtalash kreditni sug'irtalash faktoring lizing.
Krezis sharoitida bank xizmatlari; Bank mijozga kutilmagan krezis holatda profesional yordam olish imkonini beradi.	Qayta moliyalashtirish ikkilamchi omonatlar sug'irta majburiyati kompaniyani sotish.

Xususan , banklarning kapitallashuv darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali 36,2 foizga oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga 4 100,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2010 yil yakuni bo'yicha bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 23,4 foizni tashkil etib, bu xalkaro bank nazorati bo'yicha Bazel ko'mitasi tomonidan tavsiya qilingan 8 foizlik ko'rsatkichdan qariyb 3 barobar ko'pdir. 2010 yilda tijorat banklari tomonidan ustav kapitalini ko'paytirish uchun chiqarilgan qo'shimcha aktsiyalar hajmi 570 mlrd. so'mni tashkil qildi va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish ishlari olib borildi. Banklar tomonidan chiqarilgan aktsiyalarning 25 foizdan ortig'i fond birjalarida sotildi. Bugungi kunda 17 ta bank aktsiyalari -"Toshkent" fond

birjasi listingiga kiritilgan bo'lib, ushbu banklarning qimmatli qog'ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilib borilmoqda. Banklar tomonidan jalb qilingan jami depozitlar xajmi 52 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 13,2 trlya. so'mga yetdi. Jumladai, aholining kredit tashkilotlaridagi depozitlari hajmi 1,5 barobarga oshib, 4,4 trln. so'mdan ziyadni tashkil etdi. 2010 yil oxiriga jismoniy shaxslar tomonidan ochilgan bank hisobvaraklari soni 1000 ta katta yoshli aholiga 1012 tani tashkil etdi. Bu esa xalkaro bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining bo'limlari sonini ko'paytirish ishlari davom ettirildi. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra tijorat banklarining joylardagi mini bank va maxsus kassalarining umumiy soni 3967 taga, shundan qishloq joylardagi soni 2120 taga yetdi. Bundan tashqari, aholidan kommunal va boshqa majburiy to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi ixtisoslashtirilgan ko'chma kassalar soni 365 tadan ortdi. Respublikamizda bank xizmatlaridan foydalanish darajasi xalkaro amaliyot ko'rsatkichlari doirasida bo'lib, 2010 yil oxiriga 100 mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49 tani tashkil qildi. Banklar tomonidan «Bank-mijoz» dasturi asosida xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar soni 2010 yilning 1 yanvariga nisbatan 24 foizga ortib, 11,1 mingtadan oshdi. Naqd pulsiz hisob- kitoblarni rivojlantirish, jumladan, plastik kartochkalar orqali to'lovlarni o'tkazish tizimini takomillashtirishga bank tizimi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jiddiy e'tibor qaratildi va bu borada sezilarli ishlar qilindi. Tijorat banklari tomonidan 2010 yil davomida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 1850 ming donaga, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida o'rnatilgan terminallar soni 25110 donaga oshdi. 2011 yilning 1 yanvariga kelib, muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 7909 mingtaga, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida o'rnatilgan terminallar soni 85741taga, bankomat va infokiosklar soni 807 taga yetdi. Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 5,7 trln. so'mni tashkil etib, 2009 yilga nisbatan 2,5 barobarga oshdi. Qarz oluvchilarning kredit tarixi axboroti tizimini

takomillashtirish. Markaziy bankning Kredit axboroti milliy institutida shakllantirilgan qarzdorlar to'g'risida kredit axborotining yagona reestri muntazam yuritilib takomillashtirilib borilmokda. Institut va banklar o'rtasida yo'lga qo'yilgan qarzdorlar to'g'risidagi kredit axboroti almashinuvi tizimi tijorat banklarining kredit operatsiyalari bo'yicha tavakkalchiliklarini kamaytirishga yordam bermoqda. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra institut bazasida 732 mingdan ortiq qarzdorning 1243 mingdan ortiq kredit shartnomasi to'g'risida ma'lumotlar jamlangan bo'lib, bank tizimi jami kredit portfelidagi kreditlar va qarz oluvchilar to'grisida axborot mujassamlashgan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida bank tizimining barqaror rivojlanib borayotganligi nufuzli xalkaro reyting kompaniyalari tomonidan ham tasdiqlanmoqda. Jumladan, 2010 yilning avgust oyida «Mudis investore servis» reyting agentligi tomonidan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O'zbekiston bank tizimi nafaqat o'zining barqarorligini saqlab qolganligi, shu bilan birga, banklar aktivlari sifatining yaxshilanishi, kapitallashuv darajasining oshirilishiga erishilganligi e'tirof etildi va respublikamiz bank tizimiga «barqaror» reyting bahosi berildi. Shuningdek, bugungi kunda respublikamizning 15 ta tijorat banki (TIF Milliy banki, Asakabank, Uzsanoatqurilishbank, Qishloq qurilish bank, Agrobank, Mikrokreditbank, Ipoteka-bank, Turonbank, Alokabank, Ipak Yo'li banki, Hamkorbank, Kapitalbank, Kredit-Standart bank, Xalq banki) nufuzli xalkaro reyting kompaniyalarining («Fitch reytinge», «Mudis investore servis» va «Standart end purs») «barqaror» reytingiga egadir. Nobank kredit tashkilotlari tizimining rivojlanishi Respublikada nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish borasida ko'rilgan chora- tadbirlar natijasida ularning soni, aholining keng qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyati kengayib bormokda. 2011 yilga mo'ljallangan monetar siyosat va bank tizimining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzusidagi

dasturiy ma`ruzasi hamda Vazirlar Mahkamasi majlisidagi 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan ma`ruzasida belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishiga qaratiladi. Xususan : inflyatsiyaning maqsadli ko`rsatkichlar doirasida bo`lishini ta`minlash hamda iqtisodiy o`sishning yuqori sur`atlarini qo`llab- quvvatlash; respublika iqtisodiyotining jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va o`rnini mustahkamlashga yo`naltirilgan tarkibiy qayta o`zgarishlar hamda yuqori texnologik zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish siyosatini davom ettirish; qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilish va texnik yangilashga alohida e`tibor qaratgan holda ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoklarini jadal yangilash; infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal rivojlantirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ushbu sohaga maksimal darajada qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish; bandlikni ta`minlash va yangi ish o`rinlari yaratish muammosini izchil hal etish borasidagi tadbirlarni moliyaviy qo`llab-quvvatlash 2011 yilgi pul-kredit siyosatining va bank tizimi faoliyatining eng muhim ustuvor yo`nalishlari qilib belgilab olindi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya operatsiyalarining, ya`ni bank tizimining tashqi aktivlari o`sishi hisobiga vujudga kelgan ortiqcha likvidlikni Markaziy bankning maxsus depozitlariga jalb qilish operatsiyalarining o`rtacha oylik hajmini pul agregatlarining maqsadli ko`rsatkichlaridan kelib chiqib hamda to`lov balansining ijobiy sal dosini inobatga olgan holda 1,3 martagacha oshirish mo`ljallanmoqda. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy mablag`lar bilan ta`minlash maqsadida tashkil etilgan O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasiga xorijiy valyutadagi mablag`larni jamlash davom ettiriladi. Hisob-kitoblarga ko`ra, 2011 yilda ushbu jamg`armaga qo`shimcha ravishda 1,8 trln. so`mdan ortiq mablag`lar jalb etilishi ko`zda tutilmokda, bu esa, o`z navbatida, pul massasini ushbu

miqdorda asossiz o'sishini oldini olishga va uni maqsadli chegarada ushlab turishga xizmat qiladi. 2011 yilda ushbu jamg'arma tomonidan 780 mln. AQSh dollaridan ortiq xajmdagi investitsion loyihalarning moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. Inflyatsiyaning maqsadli parametridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida 2011 yilning 1 yanvaridan qayta moliyalash stavkasi amaldagi 14 foizdan 12 foizga tushirildi. Qayta moliyalash stavkasining 2 foiz punktiga tushirilishi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishiga, ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan: - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirishga, - qishloq joylarda uy-joy qurilishiga, - kichik biznes sub'ektlari va xususiy tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar va mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari pasayadi. 2011 yilda ham valyuta almashuv kursi eksportni rag'batlantiruvchi va inflyatsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizm sifatida ko'llaniladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2011 yilga mo'ljallangan maqsadli parametrlaridan hamda eksportbop va import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish vazifalaridan kelib chiqqan holda so'mning almashuv kursi devalvatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda, asosiy e'tibor so'mning real effektiv almashuv kursi dinamikasiga qaratiladi, So'mning devalvatsiya darajasi real effektiv almashuv kursining pasayishini ta'minlab, eksportning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Monetar siyosat instrumentlari va ulardan foydalanish 2011 yilda ham Markaziy bank muomaladagi pul massasini tartibga solishda monetar siyosatning bozor instrumentlaridan foydalanish bilan bir qatorda ularning samaradorligini oshirish boradi. Xususan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidlik darajasining yetarli miqdorda bo'lishini ta'minlash maqsadida vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar monitoringa muntazam ravishda amalga oshirib boriladi va ularning optimal darajada bo'lishi uchun barcha zaruriy choralar

ko'ridadi. Shuningdek, majburiy rezervlar normasi bank tizilishi; darajasida kelib chiqqan holda o'zgartirib boriladi. Amaliyotta muvofiq yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Banklardagi omonatlar hajmining oshishida aholi real daromadlarining o'sishi hamda bank tizimining barqarorligi asosiy omil bo'lgani holda, banklardagi omonatlarning to'liq qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va ulardan olinadigan foiz daromadlar solikdan ozod etilganligi hamda 410 xildan ortiq omonat turlari taklif qilinayotganligi bank depozitlarini qulay, xavf- xatarsiz va barqaror daromadli moliyaviy instrumentga aylantirdi. Shuningdek, 2010 yil davomida banklarning 172,4 mlrd. so'mlik uzoq muddatli obligatsiyalari investorlar o'rtasida joylashtirilgan bo'lsa, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga sotilgan depozit sertifikatlari qoldig'i 281,7 mlrd. so'mni tashkil kildi. Banklarning kapitallashuv darajasi va depozitlari hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga ustahkam zamin bo'ldi. Tijorat banklarining umumiy aktivlari 2010 yil boshiga nisbatan 32,1 foizga oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra qariyb 20,8 trln. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilda banklar tomonidan ajratilgan kreditlar koldig'i 35 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 11,5 trln. so'mga yetdi. Bunda ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi. Banklarning kredit portfelida ham sezilarli sifat o'zgarishlar ro'y berdi. Umumiy kredit portfelida 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsion kreditlarning ulushi 2000 yilning oxiridagi 35 foizdan 75,2 foizga yetdi. 2010 yilning o'zida banklar tomonidan investitsiya maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi 3 250 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, 2009 yilga nisbatan 35 foizga oshdi. Iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, qayta tiklash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va keyinchalik ushbu korxonalarni strategik investorlarga sotish borasida ham banklar tomonidan salmikli ishlar amalga oshirildi.

III bob. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishning yo'nalishlarini takomillashtirish yo'llari.

III.1. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirishni asosiy yo'nalishlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklari iqtisodiyotda moliya resurslarini qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi, shuningdek xo'jalik subektlarini joriy va investitsiya faoliyatini moliyalashtiruvchi muhim instituti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jahon mamlakatlari iqtisodiyotida moliyaviy va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, aholining turmush darajasini oshirish, xalqaro pul-kredit va valyuta munosabatlarini yanada erkinlashtirishni ta'minlashda tijorat banklari va ularning faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi

Har qanday iqtisodiyotda ayniqsa, bozor iqtisodiyotida bank tizimining o'rnini beqiyosdir. Chunki banklar va bank tizimi iqtisodiyotning "qon tomiri" xisoblanadi va uning qay darajada muvaffaqiyatli ishlashi mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, banklarning doimiy va samarali nazoratini tashkil etish bugunning dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi.

Xalqaro xisob-kitoblar banki qoshida tashkil etilgan bank nazorati bo'yicha BAZEL` qo'mitasi dastlab katta o'nlik davlatlari (G10) \* markaziy banklari Prezidentlari tomonidan 1974-yilda Bazeldashaxrida tashkil etilgan. 2009-yildan esa barcha katta yigirmalik davlatlari (G20) uning ishtirokchilari xisoblanadi. Bazeld` qo'mitasi a`zolari bir yilda 4 marta yig'ilishadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi bank soxasini doimiy boshqarish va nazorat qilish bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda qo'mitaga a`zo davlatlarning boshqaruv organlari uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqariladi. Ushbu tavsiyalarni joriy etish majburiy xisoblanmasada, lekin ko'p xollarda a`zo davlatlarning qonunchilik xujjatlarida o'z aksini topadi.

Bazeld` qo'mitasining asosiy xujjatlari quyidagilar xisoblanadi:

-samarali bank nazoratining asosiy tamoyillari(1997-yil, 2006-yilda qayta ko'ribchiqilgan);

- Bazel` I kelishuvi (1988-yil);
- Kapitalning yetarliligi bo'yicha yangi kelishuv (Bazel II, 2004-yil);
- Bazel III kelishuvi (2010-yil sentyabr)

Xar bir kelishuv oldingisini o'zida namoyon etadi va unga qo'shimcha va yangiliklarni o'z ichiga oladi.

Bazel` II kelishuvining asosiy maqsadi bank soxasida vujudga keladigan risklarni samarali boshqarish orqali moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat va u 3 qismdan tashkil topgan.

1.Kapitalning minimal darajasiga qo'yilgan talablar.

Kredit, bozor va operatsion risklardan kelib chiqqan xolda kapitalning yetarliligiga qo'yilgan talablar. Bunda umumiy kapitalning yetarliligi 8%dan kam bulmasligi va 2 darajali kapital 1 darajali kapitaldan oshib ketmasligi kerak.

2.Nazorat qismi.

Bunda nazorat jarayonining asosiy tamoyillari, risklarni boshqarish, ma'lumotlar shaffofiligi, foiz riski, kredit riski, operatsion risk va sek'yuritizatsiyaga qo'yilgan talablar o'z aksini topgan.

3.Bozor intizomi qismi.

Bunda yuqoridagi ikki komponentning o'zaro bog'liqlikda olib borilishi va qo'shimchalar ko'zda tutilgan.

2008-yilda boshlangan Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bank tizimini xam chetlab o'tmadi. Dunyodagi ko'plab yirik banklar katta miqdorda zararlar ko'rdi, ayrimlari tanazzulga uchradi ayrimlari qo'shilib ketdi. Ana shundan kelib chiqib, 2010- yil 1-sentyabrda yangi kelishuv tasdiqlandi va u Bazel` III nomini oldi. Unga ko'ra, banklarning kapitali yetarliligiga qo'yilgan talablar oshirilgan. Birinchi darajali asosiy kapitalning yetarlilik darajasi (common equity, oddiy aktsiyalar va taqsimlanmagan foyda) xozirgi 2%dan 4,5%ga oshirildi.

Bundan tashqari yangi qo'shimcha ravishda 2,5% zaxira kapitali, ya'ni "ximoya yostiqchasi" tashkil etish ko'zda tutilgan.Shundan kelib chiqib 1 darajali

bazaviy kapitalga qo'yilgan talab 3 barobardan ortiqroq oshadi, xozirgi 2%dan 7%ga (4,5Q2,5) yetadi.

1 darajali kapitalning yetarliligiga qo'yilgan minimal talab 4%dan 6%gacha oshirildi. Umumiy kapitalning yetarliligiga qo'yilgan talab esa 8%dan 10% gacha oshirildi.

Bazel` III kelishuvining yana bir punktiga asosan banklar maxsus "konttsiklik" zaxira diapazonini bazviy kapitalidan 0-2,5% gacha "kredit pufakchalari" uchun maxsus zaxira yaratishlari kerak.

Ushbu talablar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va 2019-yilda to'liq o'tib bo'linadi.

Bazel` III kelishuvi banklarning yangi daromad manbalarini izlab topishga undaydi. Masalan, nafaqat yevropada, balki butun dunyoda o'zining mutsaqilligi va moliyaviy barqarorligi bilan mashxur bo'lgan Germaniya banklari ham hozirda jiddiy muammoga duch kelmoqda. Germaniyaning 10ta eng yirik banklari ushbu talablarni bajarishi uchun qo'shimcha 100 mlrd. yevrodan ko'proq mablag' kerak bo'ladi.

Fitch Ratings

№	Банк номи	Рейтинг баҳоси
1	Пахта банк	«В-» прогноз барқарор
2	Саноатқурилиш банк	«В» келажакдаги узоқ ва қисқа муддатли барқарорлиги рейтинги; «D/E» индивидуал рейтинг.
3	Ҳамкорбанк	«В» келажакдаги узоқ ва қисқа муддатли барқарорлиги рейтинги; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
4	Асакабанк	В» келажакдаги узоқ ва қисқа муддатли барқарорлиги рейтинги; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
5	Микрокредитбанк	В» келажакдаги узоқ ва қисқа муддатли барқарорлиги рейтинги; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
6	Ипак Йўли банки	«ССС+» молиявий барқарор 8

Moody's Investors service

№	Банк номи	Рейтинг баҳоси
1	Миллий банк	«Е+» молиявий барқарор; «Not Prime» депозитлар бўйича қисқа муддатли рейтинг; барча рейтинглар прогнози «барқарор»
2	Ғаллабанк	«В3/NP/E» барча рейтинглар прогнози «барқарор»
3	Туронбанк	«Е+» молиявий барқарор; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
4	Алоқабанк	«Е+» молиявий барқарор; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
5	Ипотекабанк	«Е+» молиявий барқарор; барча рейтинглар прогнози «барқарор».
6	Кредит Стандарт банк	«Е+» молиявий барқарор; барча рейтинглар прогнози «барқарор». 9

Standard & Poor's

№	Банк номи	Рейтинг баҳоси
1	Миллий банк	«В/В» - «Барқарор»
2	Капитал банк	«В-/С» - «Барқарор»

Базел қo'митасининг талабларига кo'ра,jahonnning кo'pgina davlatlari tijorat banklarida har bir mijozga beriladigan qazdorning kredit qobilyati yuzasidan

bankning ichki reyting tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda qarzdorning to'lovga qobiliyatlilik reytingi qancha past bo'lsa, bankning o'z kapitali miqdoriga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi. Tijorat banklari o'zida yaratilgan mustaqil kredit tizimidan foydalanish orqali qarzdor bilan bog'liq risk turi va darajasiga qarab kreditlashga har tomonlama yondashish imkonini beradi.

Ichki reyting tizimini shakllantiruvchi va undan foydalanuvchi tijorat banklari risklarni baholash va boshqarishda har bir kredit holati to'g'risida bank hisobotidagi va qarzdorning moliyaviy holati to'g'risida oxirgi bir necha yil ma'lumotlariga asoslanishi lozim bo'ladi. Bu esa bankda ajratilgan kreditlar, qarzdorning moliyaviy holati, kredit tarixi va boshqalar bo'yicha mijozlar va ularning vakillariga tegishli ko'p yillik zaruriy axborotlar bazasini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu ko'rinishdagi Bazel III talablarini bajarish esa tijorat banklarini tegishli mablag'larni sarflashga majbur qiladi. Bizning fikrimizcha, xorijiy operatsiyalarni amlga oshiruvchi banklar ichki bozorda faoliyat yurituvchi banklarga nisbatan yangi talablarni oldinroq joriy etishga majburdir. Bazel III talablarini joriy etish bo'yicha markaziy bank tomonidan belgilangan me'yoriy xujjatlarda, risk-menejment usullarida va texnologiyalarda ham aks ettirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Bazel III talablarining O'zbekiston bank tizimiga tadbiq etilishi tijorat banklarimizga jahon moliya-bank bozorida jiddiy raqobat ustunligi esa tijorat banklari boshqaruvining asosli qarorlari bilan muvozanatlashgan bo'lishi lozim. Kelajakda Bazel III talablarini qo'llayotgan tijorat banklari o'zlarida yo'lga qo'yilgan risk-menejmenti tizimi samaradorligini oshirish orqali jahon bank xizmatlari bozoridagi reytingini oshirish va eng asosiysi bank tizimi barqarorligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi

III.2. Bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish yo'nalishlaridagi mavjud muammolarni va ularni bartaraf etish yo'llari.

2011 yilda Respublika bank tizimi barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini rag'batlantirishga qaratilgan quyidagi qator muhim chora-tadbirlar:

- xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda bank nazoratini takomillashtirish, tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudentsial nazoratning rolini oshirish;

- banklarning kapitallashuvini, aktivlari sifatini, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklarni, jumladan kredit tavakkalchiligini boshqarishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish;

- aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish;

- iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni faollashtirish;

- tijorat banklarida hisob va hisobotni yuritishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni joriy etish, ularning sifati va ochiqqligini ta'minlash;

- respublika tijorat banklari va moliya-bank tizimi faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish va ularning bajarilishiga erishish borasida tegishli ishlar olib boriladi.

2011 yilda bank tizimini yanada mustahkamlash maqsadida xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan moliya institutlarini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishni ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmui ishlab chiqildi. Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon berdi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. Shu bilan bir qatorda 2011 yilda kredit tashkilotlarining huquqiy bazasini mustahkamlash

va ular faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator qonunchilik hujjatlarini, jumladan, "Kredit byurolari faoliyati va kredit ahboroti almashuvi to'g'risida"gi, "Garov reestri to'g'risida"gi qonunlar loyihasini ishlab chiqish mo'ljallangan. Bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o'zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish, bank tizimini institutsional rivojlantirish borasida:

- joylarda o'tkaziladigan tekshiruvlar natijalari bo'yicha tijorat banklari:

- a) kapitalining yetarlilik darajasi;

- b) aktivlarining sifati;

- v) boshqaruv tizimining sifati;

- g) likvidligi;

- d) daromadliligi hamda

- e) bozor xavf-xatarlariga nisbatan barqarorligini baholashning takomillashtirilgan tizimi (SAME) ni bosqichma-bosqich joriy etish;

- turli makroiqtisodiy vaziyatlar, xususan , jahon iqtisodiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan stress holatlarning bank tizimiga ta'sirini «stsensariy tahlil» usulida o'rganishni bank nazorati amaliyotiga joriy etish;

- jahon moliyaviy inqirozi sabablarini chuqur o'rgangan holda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilayotgan bank nazoratining takomillashtirilgan tizimi - «Bazel 3»ni bosqichma- bosqich tadbiq etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar majmui ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

«Bazel 3» tizimi, avvalgi tizimlardan farqli o'laroq, kutilayotgan ehtimoliy yo'qotishlar uchun rezervlar shakllantirishni, shu asosda, banklarda barqarorlashtirish jamg'armasini tashkil etishni, shuningdek, kapitalning yetarlilik va likvidlik darajasi mezonlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi . Bank Kengashini bank faoliyatini Boshqarishdagi rolini kuchaytirish, xususan , bank Kengashlari tarkibiga betaraf a'zolari kiritish kabi ishlar amadga oshiriladi. Banklar aktivlari va kredit portfeli sifatini oshirish, ular faoliyatidagi tavakkalchiliklarni, jumladan kredit tavakkalchiligini boshqarishni takomillashtirish borasida:

- bank operatsiyalarini o'tkazishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini aniklash bo'yicha me'oriy hujjatlar na uslubiy tavsiyalarni takomillashtirish;

- kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo'mitalari va mas'ul xodimlarining javobgarligini oshirish;

- kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini birxillashtirish, ular bo'yicha tavakkalchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etish, shuningdek, kreditlar bo'yicha muammoli qarzdorliklarni paydo bo'lishini oldini oluvchi choralar tizimini ishlab chiqish;

- kredit tashkilotlari va ularning filiallari faoliyatini tartibga solishda ichki nazorat tizimining rolini kuchaytirish maqsadida amaldagi me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

- xalqaro moliya bozoridagi yirik banklar tajribasidan kelib chiqib, tijorat banklarida mijozlarining kredit tarixi va moliyaviy ko'rsatkichlariga tegishli baho berish orqali tahlil qilish uslubiyoti «skoring- tahlil»ni keng joriy etish;

- tijorat banklari tomonidan xo'jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan birgilikda investitsion loyihalarni va boshqa hujjatlarni ishlab chikish bo'yicha injiniring kompaniyalari faoliyatini jadallashtirish;

- tijorat banklarida investitsion loyihalarini ekspertiza qilishda jarayonlar shaffofligini oshirish, xususan , loyihalarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillar va tavakkalchiliklarni hisobga olinishini ta'minlash chora- tadbirlari amalga oshiriladi. Banklarning resurs bazasini yanada mustahkamlash, bank xizmatlarining sifatini oshirish va yangi turlarini joriy etish orkali aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb qilish hajmlarini oshirib borish vazifalari doirasida:

- banklar jami kapitalini yil mobaynida kamida 20 foizga o'sishini ta'minlash;

- bank xizmatlari sifatini oshirish va turlarini kengaytirish hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirish orkali aholi va xo'jalik sub'ektlarining banklardagi depozitlar hajmini kamida 30 foizga oshirilishini ta'minlash;

- aholi va xo'jalik sub'ektlarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda omonatlar va depozitlarning yangi turlarini taklif etish, jumladan, uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish, subordinar qarzlar amaliyotini yanada kengaytirish;

- zamonaviy informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangi bank xizmati turlarini jumladan, internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yish bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar xajmini oshirish va banklarning investitsion jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida:

- iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha investitsion loyihalarini, jumladan hududlarni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni kreditlash hajmlarini yil mobaynida 30 foizga ko'paytirish; -investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi qoshida tijorat banklari bilan hamkorlikda investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil qilish;

- tijorat banklarining ustav kapitaliga yo'naltirilgan maqsadli mablag'lar hisobidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini imtiyozli kreditlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora- tadbirlarni davom ettirish;

- «Inqirozga karshi choralar dasturi»da 2011 yil uchun belgilangan chora- tadbirlarni to'liq amalga oshirish, xususan, to'lanmay qolgan qarzlar tufayli banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini tiklash, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tadbiq etish hamda ularni yangi investorlarga sotish bilan bog'liq ishlarni davom ettirish;

Barqaror eksport salohiyatiga ega korxonalarni imtiyozli kreditlar ajratish yo'li bilan moliyaviy qo'llab- quvvatlash;

- aholiga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovarlari, jumladan uzoq, muddat davomida foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishlari uchun iste'mol kreditlari berish ko'lamlarini kengaytirishga doir ishlar amalga oshiriladi.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan ishlar 2010 yilda pul-kredit siyosati «Monetar siyosatning 2010 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari» asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonining 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan dasturiy ma ruzalarida belgilangan vazifalardad kelib chiqqan holda amalga oshirildi, xususan iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish orkali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish inflyatsiya darajasini 8 foizdan oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida muomaladagi pul massasining belgilangan parametrlar doirasida bo'lishiga, huningdek valyuta va moliya bozorlarining barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ochiq bozordagi operatsiyalar muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta'minlovchi instrument sifatida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda qo'llanilib kelindi. Markaziy bank tomonidan 2010 yilda tashqi savdo balansining ijobiy bo'lishi natijasida bank tizimi sof tashqi rezervlarining ko'payishi hisobiga yuzaga kelgan qo'shimcha likvidlikni sterilizatsiya qilish operatsiyalari davom ettirildi. Xususan ,2010 yilda Markaziy bankning depozitlariga jalb qilish operatsiyalarining hajmi 2009 yilga nisbatan 1,3 martaga oshib, qariyb 3,0 trln. so'mni tashkil qildi. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan muomalaga chiqarilgan davlat o'rta muddatli obligatsiyalari bilan birlamchi va ikkilamchi bozorlarda oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish davom ettirildi. 2010 yilda Moliya vazirligi tomonidan yuridik shaxslar uchun chiqarilgan obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha o'tkazilgan auktsion savdolarida 23,6 mlrd. so'mlik obligatsiyalar joylashtirildi. Bunda, 17,9 mlrd. so'mlik obligatsiyalar birlamchi savdolarida, qolgan 5,7 mlrd. so'mlik obligatsiyalar esa ikkilamchi savdolarida qo'shimcha joylashtirildi. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra muomaladagi davlat o'rta

muddatli obligatsiyalari hajmi 53,0 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan 42,0 mlrd. so'mni (yoki 79,9 foizi) banklar hissasiga, qolgan 11,0 mlrd. so'mi (yoki 20,1 foizi) korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha o'rtacha yillik daromadlilik 5,8 foizni tashkil etdi. Majburiy rezervlar. 2010 yilda tijorat banklari mijozlarining depozitlariga o'rnatilgan majburiy rezerv talablari muomaladagi pul massasini va bank tizimi likvidligini tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida qo'llanildi. Pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun - 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun - 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlari uchun - 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi. 2010 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy rezervlari hajmi 342 mlrd. so'mga ko'paydi. Natijada, tijorat banklari majburiy rezervlarining rezerv pullardagi ulushi 2010 yil boshiga nisbatan 2,0 foizli bandga oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 21,9 foizga teng bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining hisobvarag'ida qo'shimcha ravishda 2,3 trln. so'm ekvivalentidagi mablag'lar jamlanib, tashqi omillarning pul massasi o'sishiga ta'siri kamaytirildi. 2010 yilda monetar omillarning inflyatsiyaga ta'sirini oldini olish maqsadida va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib Markaziybankning qayta moliyalash stavkasi 14 foiz miqdorida ushlab turildi . Bu esa, o'z navbatida pul bozorida foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat kildi. Foiz stavkalari dinamikasi 2010 yilda respublikadagi makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik depozitlar va foiz stavkalarining dinamikasida o'z aksini topdi. 2010 yilda kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining pasayishi kuzatildi. Xususan , kiska muddatli (muddati bir yilgacha bo'lgan) kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yil boshidagi 15,7 foizdan dekabr oyiga kelib 13,8 foizgacha tushdi. Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2010 yilda 13,0 foizni tashkil etdi. 2010 yilda jismoniy

shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari Yil boshidagi 13,1 foizdan dekabr oyida 9,9 foizgacha tushdi. Yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2010 yilda 6,8 foizdan 6,1 foizgacha pasaydi. Banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayish kredit ko'lamining kengayishi banklararo pul bozorida ham foiz stavkalarining pasayishiga olib keldi, Xususan , 2009 yil davomida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarni yillik hisobda 9,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda ushbu ko'rsatkich 8,9 foizga teng bo'ldi. Valyuta siyosati 2010 yilda Markaziy bank tomonidan xalqaro valyuta bozoridagi vaziyatdan kelib chikkan holda, milliy valyuta va narxlar barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatning eksport saloxiyatini yanada oshirish bo'yicha zaruriy chora- tadbirlar amalga oshirib borildi. Bunda ichki valyuta bozoriga tashqi omillarning salbiy ta'sirini bartaraf etish va uni samarali tartibga solish maqsadida Markaziy bank tomonidan valyuta almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan strategiyasi qo'llanildi. Markaziy bank milliy valyuta almashuv kursini maqsadli koridor doirasida ushlab turish uchun valyuta savdolarida xorijiy valyutalarni sotuvchi va sotib oluvchi sifatida qatnashib, intervensiya operatsiyalarini amalga oshirib bordi. Eksportni rag'batlantirish hamda importni maqbullashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmi 2009 yilga nisbatan 27,2 foizga oshib, uning xajmi 11,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra bir AQSh dollarining nominal qiymati 1 640,0 so'mni tashkil qilib, milliy valyutaning nominal devalvatsiyasi 8,5 foizga teng bo'ldi. So'mning AQSh dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSh dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi. Shunga muvofiq, 2010 yilda so'mning yapon ienasiga nisbatan almashuv kursi 20,3 foizga va funt sterlingga nisbatan 3,8 foizga pasaygan bo'lsa, yevroga nisbatan 2,2 foizga ko'tarildi.

Xulosa va takliflar.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Maxkamasining naqd pul muomalasini mustaxkamlashga, ichki iste'mol bozorini xaridorgir tovarlar va xizmatlar bilan tuldirishga karatilgan karorlari ijrosini tulakonli va samarali bajarilishiga erishish. Muomalaladagi naqd pullarni banklar orkali aylanishini ta'minlash yuzasidapn barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur buladi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklardagi depozit xisobvaraklardan naqd pul tulovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari tugrisida» gi 2005 yil 5 avgustdagi PK-147-sonli karori talablarini tulik bajarilishini ta'minlash kerak.

Uyushgan savdo shaxobchalari ishini namunali tashkil eti shva faoliyatini yaxshilash, ularni axolining kundalik extiyoji uchun zarur bulgan asosiy ozik-ovkat va noozik-ovkat tovarlarining yetarli mikdorda va assortimentda bulishini ta'minlash orkali axolii kulidagi naqd pul mablaglarini bank aylanmasiga jalb kilish chora-tadbirlarini kurish lozim.

Tijorat banklari tegishli tashkilotlar bilan birgalikda axolining kommunal tulovlardan bulgan karzdorligini kamaytirish iaksadida vash u orkali kushimcha naqd pullarni jalb kilish maksadida maxsus kassalarning doimiy faoliyat kursatishini ta'minlash va extiyojga karab kushimcha kassalarni ochish.

Viloyatda faoliyat kursatayotgan uyali aloka kompaniyalari tomonidan naqd pul tushumi ustidan monitoring urnatish, shu jumladan ekspress kartochkalar sotuvi Bilan shugullanayotgan dilerlardan naqd pul tushumini aloxida nazoratga olish.

Omonatchilarning kizikishlarini oshirish va bush pul mablaglarini bank kassalariga jalb kilish maksadida xar bir tijorat banki mikyosida kulay foiz stavkalarida Yangi omonat turlarini ochish choralarini kurish, ommaviy axborot vositalarida omonatlar tugrisida reklama, targibot-tashvikot ishlarini amalga

oshirish.

Nakd pul tushumlarini tulik topshirilishi ustidan monitoring urnatgan xolda savdo tashkilotlariga kundalik zarur tovarlar sotib olishlari uchun tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish.

Axoliga mamlakatimizda ishlab chikarilgan iste'mol tovarlari sotib olishlari uchun iste'mol kreditlari berishni yanada kupaytirish choralarini kurish. Ayniksa byudjet tashkilotlari xodimlariga iste'mol kreditlari berishni kengaytirish va uning afzalliklari tugrisida tushuntirish olib borish.

Chakana savdo faoliyati Bilan shugullanuvchi xujalik sub`ektlariga ajratilgan kreditlar, kichik biznes sub`ektlariga naqd pulda ajratilgan (shuningdek xorijiy kredit liniyalari orkali) mikrocreditlar xamda axoliga berilgan iste'mol kreditlari va ularga xisoblangan foizlarni bank kassalariga naqd pulda topshirilishini nazoratga olish.

«Uzbekiston xavo yullari» aviakompaniyasining rasmiy dilerlari tomonidan chiptaparning sotilishi va topshirilgan naqd pul summalarini doimiy taxlil kilish va tegishli choralar kurish.

Alkogol va tamaki maxsulotlari, usimlik yogi, avtomobil benzin iva dizel yokilgisi bilan savdo kiluvchi yuridik shaxslarda mazkur tovarlar savdosi uchun maxsus xisob rakamlar fakatgina ularning inkassatsiya shartnomalari va chakana savdoga ruxsatnomalari mavjud bulgan xollardagina ochilishini ta`minlash.

Yukorilikvidli naqd pulga sotiluvchi tovarlarga pul utkazgan xujalik sub`ektlarining savdo pullarini uz vaktida bank kassalariga topshirilishini doimiy nazoratga olish.

UzDEU avtokorxonasida ishlab chikarilgan yangi avtomobillarning sotilishi xamda avtomobillarni sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan axoliga berilgan kreditlar va ularga xisoblangan foizlarni naqd pulda bank kassalariga topshirilishini nazoratga olish.

Xududlar buyicha bank kassalariga tushgan naqd pul tushumlarini savdo, pullik xizmat, kommunal xizmat va boshka manbalardan tushumlarining

salmogibuyichaxar oy yakuni buyicha taxlil qilish, taxlil natijalari buyicha tegishli tavsiyalar ishlab chikish va ushbu tavsiyalar bajarilishi choralarini amalga oshirish kerak.

Nakd pul tushumlarini kupaytirish, naqd pullarning bankdan tashkari aylanmasini kiskartirish buyicha tegishli choralarni amalga oshirish xisobiga axoli va xujalik sub`ektlarining naqd pulga bulgan talabini ularning depozit xisobvaraklaridagi mablaglar doirasida uz vaktida va uzluksiz berilishini ta`minlash. Ayniksa pensiya, nafaka, stipendiya, byudjet tashkilotlari va xujalik sub`ektlarining ish xaki tulovlarini uz vaktida naqd pul bilan ta`minlash buyicha doimiy monitoring olib borish va urnatilgan nazoratni yanada kuchaytirish choralarini kurish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonun.1995 yil.
2. Bank va bank faoliyati to'g'risidagi qonun. 25.04.1996 yil.
3. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik xujjatlari to'plami. Toshkent O'zbekiston 2000 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1436-sonli Farmoni «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari.»
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil yakunlari va 2011 yilning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma`ruzasi. I.A.Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada rivojlantirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi.Halq irodasi 2011 yil.
6. I.A.Karimov.Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish,halqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.Halq so'zi 2011-yil 22-yanvar
7. I.A.Karimov “2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida”gi ma`ruzasi Halq so'zi gazetasi №21 2010 yil
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1436-sonli Farmoni «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari.»
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil yakunlari va 2011 yilning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma`ruzasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi Farmoni «Bank tizimini yanada erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik xujjatlari va ularni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» Toshkent O'zbekiston 2000 y.

11. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari Toshkent O'zbekiston 1998 yil.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent O'zbekiston 1999 yil.
13. Karimov I.A Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent O'zbekiston 2009 yil.
14. Jahon moliyaviy-inqirozi sabablari hususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari Vaxobov A.V. Jumaev N.X. Xoshimov A. Toshkent Akademik nashryoti 2009 y.
15. Mullajanov F. Bankovskaya sistema O'zbekistana v godu nezavisimosti Tashkent O'zbekiston 1996 yil.
16. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Toshkent Moliya 2001 yil.
17. Abdullaeva Sh.Z. Bank xatarlari va kreditlash Toshkent «Moliya» 2002 yil
18. Saidboev Sh.D. Akramov A «Bank xatarlari» o'quv qo'llanma Namangan 2009 yil.
19. N.Boboev Banklar. Tijorat banklarining jalb etilgan mablag'larini boshqarish. Bozor pul va kredit № 8 2000 yil
20. Umarqulov Z, Shukurralaeva G. «Bank likvidligining aktivlari va passivlarini boshqarishga ta'sisi. Bozor, pul va kredit № 3 2002 yil
21. Botirov F Bazel II va bank risklari Bozor pul va kredit № 9 2007 yil
22. Jo'raev U Halqaro Bank nazoratini takomillashtirishda Bazel qo'mitasining roli Bozor pul va kredit № 10 2003 y
23. Dadaboeva X Tijorat banklarida reyting tizimi. «Bozor pul va kredit № 11 2002 y
24. Ismoilov M. Diversifikatsiya tijorat banklari kredit siyosati asosiy yo'nalishi. Bozor, pul va kredit № 12 2002 y .
25. Mullajanov F. Barqaror bank tizimi iqtisodiyot tayanchi. Bozor pul va kredit 2010 yil

26. Donan. E.D.Kemrbell R.D. Bankovskoe delo i denejno kreditnaya politika. Peredod s ang Lelingrad 1991.
27. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo Moskva. Fananso' i statistika 1999.
28. Maslennenkov Yu.S. Finansovo'y menenjment vkommercheskom banke. Moskva. Preslektiva 1996
29. Zokirov E. Bank kredit portfeli monitoringi. Bozor va pul va kredit № 10 2001
30. Ortiqov A Tijorat banklari likvidligini samarali boshqarish. Bozor pul va kredit № 10 2001
31. Karimov I.A. 2009 yilning Asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisdagi ma'ro'zasi Halq so'zi gazetasi № 21 2010 yil
32. Rao'z S.P. Bankovskiy menejment Moskva. Delo LTD 1993
33. Cherkav V.A. Analiz kommercheskogo riska . Pod red. M.I. Bankova Finanso' i statistika 1998
34. Yuldashev F Kak sformirovat investitsionio'y portfel banka. Bozor pul va kredit № 6 2002
35. Rayzberg B.A. Predprinimagel stvo i risk M.Znapes 1992
36. Internet saytlari.

www.finanee.uz

www.statistika.uz

www.banking.com

www.bank.ru

www.referat.ru

www.c.b.u.uz